

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruxsat etildi”

**Ijtimoiy – iqtisodiy fakul’tet dekani
t.f.n., dots. N.Dexkonov
«____» _____ 2017 yil**

**5610400 – Ijtimoiy madaniy faoliyat
ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi
Mamataliyeva Shoxista Abduqaxxon qizining**

**“JAMIYAT TARAQQIYOTIDA RADIO VA TELEVIDENIYENI
TUTGAN O’RNI”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Himoyaga tavsiya etildi” BMI rahbari: t.f.n. O.Topildiyev
Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrasi
mudiri _____ t.f.n. O.Topildiyev
“___” _____ 2017 yil.**

Mavzu: Jamiyat taraqqiyotida radio va televideniysi tutgan o‘rnini

Reja:

Kirish

I. Bob. Tarixiy taraqqiyot jarayonida radio va televideniysi rivojlanishi

- 1.1. Radio va televideniyening yaratilishi tarixi
- 1.2. Radio va televideniyening jamiyatdagi estetik funksiyalari

II. Bob. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida milliy teleradioning o‘rnini va roli.

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy televideniya va radio sohasida amalga oshirilgan islohotlar
- 2.2. O‘zbekiston Respublikasida radio, televideniye sohasining rivojlanishida jurnalistlarning o‘rnini

Xulosa

Foydalilanigan manba va adabiyotlar ro`yxati

Kirish

O`zbekiston Respublikasida o`tgan davr mobaynida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiyotiga o`tish, xalqaro munosabatlarni yo`lga qo`yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Jamiyatda huquqiy, demokratik tamoyillarning qaror topishida ommaviy axborot va telekommunikatsiya vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Radio va televide niye paydo bo`lgan davridan boshlab omma fikrini, ma`naviyatini shakllantirishga xizmat etuvchi kuchli targ`ibot vositasi sifatida namoyon bo`lib kelmoqda. Eng asosiysi, radio va televide niye kishilarning axborot olish manbasi hamda madaniy xordiq chiqarishga xizmat qiluvchi san'at turi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etish jarayonida radio va televide niye o`ziga xos muhim ahamiyatga ega bo`lib, hozirgi kunda ham radio va televide niyening oziga xos faoliyati yangi bosqichda rivojlanib bormoqda. Jamoatchilikning radio va televide niyega kundan-kunga qiziqishi ortib bormoqda. Ko`plab rivojlangan mamlakatlarda davlat kabelli, tijorat, jamoatchilik, hissadorlik televide niyalarning yangi imkoniyatlari paydo bo`lib sifat jihatidan rivojlanmoqda. Xozirgi paytda radio va televide niya turmushimizning zarur vositasi sifatida har bir oilaning axborot olishini ta'minlaydi. Inson umr ko`rish jarayonida moddiy va ma`naviy qoniqishga intiladi. Bu insonning tabiiy ehtiyoji. Ommaviy axborot vositalari ichida radio va televide niyening inson ma`naviy dunyosini shakllantiruvchi vosita sifatida xizmati beqiyos. Radio va televide niyening maqsad va vazifalari milliy manfaatimiz talablaridan kelib chiqadi. Dunyo mamlakatlarida har yili 13-fevralni – “Jahon radiosи kuni” sifatida nishonlanadi. Ilk marta “Jahon radiosи kuni” 2012-yilda nishonlangan bo`lib, uni nishonlash haqidagi qaror 2011-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan edi. Bunga sabab, aynan 1946-yil 13-fevral kuni “BMT Radiosi” ilk bora o`z efirini boshlagan edi. Shuning uchun ham bugungi kunda 13-fevral – “Jahon radiosи kuni” sifatida Ozbekistonda va BMTga a`zo boshqa davlatlar tomonidan ham nishonlanib kelinmoqda.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Insoniyat tarixida juda ko`p buyuk ixtiolar, taraqqiyotning yangi pog`onasiga olib chiquvchi ajoyib kashfiyotlar qilingan. Katta masofalarni bir zumda bosib o`tish imkoniyatidan mahrum bo`lgan inson qadim-qadimlardan uzoq-uzoqlarga sayohat qilishni, dunyoda qanday voqealar sodir bo`layotganligidan voqif bo`lishni, boshqa sayyoralarda hayot bormi, yo`qmi bilishni, uzoq-yaqinlarini nima bilan mashg`ul bo`layotganligini ko`rib turishini orzu qilgan. Qariyib barcha xalqlar og`zaki ijodiyotida zamonaviy televideniyening ramziy timsollari - «Toshoyna», «Jomi-Jamshid», «Oynai Iskandariy», «Sehrli ko`zgu»lar uchrab turadi. Alisher Navoiyning «Farxod va Shirin» dostonida ham bunday ko`zgu «Oynai Jahon» deb ataladi. Ko`rinib turibdiki, tarixiy taraqqiyot jarayonida radio va televideniyening yaratilishi insoniyatni mafkurasini, ma`naviyatini shakllanririshda muhim ahamiyatga ega bo`ldi.

Yurtimizdagи iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning amalga oshirilishida ommaviy axborot vositalarining o`rni beqiyos bo`lib, uning insonlar hayoti bilan bog`liq tamonlari ko`p. Jumladan, bugungi kunda insonlar ommaviy axborot vositalari orasida radio va televideniyega eng ko`p bog`lanib qolishgan. Buning sababi radio va televideniyening har joyda hozirligidadir. Radio va televideniya faoliyati hamda uning jamiyatda tutgan o`rni nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugun radio va televideniya faoliyatini tubdan isloh qilishni davrning o`zi talab qilmoqda. Jamiyatning turli sohalaridagi chuqr o`zgarishlar, mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotining islohotlar sur`ati radio, televideniyeda o`z aksini to`liq namoyon qilishi zarur.

Radio va televide niye inson mafkurasini boyitib, yurtiga sadoqat ruhida tarbiyalovchi kuchli targ`ibot vositasi bo`lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, radio va televide niye rivojida radioeshittirishlar, ko`rsatuvlarning mazmundor va sifat jihatidan yuksak saviyada bo`lishida ularni tayyorlovchi jurnalist kadrlar salohiyati ko`p narsani belgilab beradi. Shuning uchun ham bitiruv malakaviy ishini yoritichda radio va televideniyening jamiyatdagi estetik funksiyalari, ularning yoshlar tarbiyasidagi o`rni muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligini hozirgi globallashuv davrida radio va televideniyening rivojlanishi, turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari, insonlarning radio va televideniyega bo'lган munosabatlarini tahlil qilish bilan belgilanadi. Bugun insonlar radio va televideniyega qattiq bog'lanib qolishgan. Radio va televideniye orqali insonlar yangiliklardan xabardor bo'lish, kerakli axborotlarni olish balki, musiqa tinglash, radio va teleshoularni ko'rish hamda ishtirok etish, ma'naviy-madaniy dam olishlari muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu bilan birga bitiruv malakaviy ishida radio va televideniyening rivojlanish bosqichlarini, o'ziga xos xususiyatlarini taraqqiyot nuqtai-nazaridan tahlil qilish hozirgi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki, radio va televideniyening rivojlanishi, unga berilayotgan e'tibor, fan-texnika rivoji ularning faoliyatini yanada kengayishida muhim dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida jamiyat taraqqiyotida radio va televideniyening tutgan o'rni masalasi keng yoritilgan bo'lib, unda radio va televideniye sohasining rivojlanishi, yutuqlari hamda o'ziga xos muammolari tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishini yoritish jarayonida radio va televideniye sohasining yaratilishida dunyo mamlakatlarida turli yo'nalishlarda faoliyat olib borgan tadqiqotchi olimlarining mehnatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buning natijasida dunyo tadqiqotchi olimlarining eng zo'r kashfiyotlaridan biri sifatida radio va televideniye yaratildi. Tarixiy taraqqiyot natijasida radio va televideniyening rivojlanishiga bo'lган munosobat kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Mavzuni o'rganishda radio va televideniyening tezlik bilan rivojlanishiga sabab bo'lган quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq keladi:

1. Radio va televideniye muhlislarining umumiyligi;
2. Radio va televideniye orqali barchaning manfatlarini qondirilishi;

3. Radio va televideniyening milliy ruh va jamoatchilik haqida g‘amxo‘rlik qilishi;

4. Auditoriyani kengaytirish maqsadida radioeshittirishlar va teleko‘rsatuvlar saviyasini oshirishga intilishi;

5. Axborot va xabarlarni tezlik bilan yetkazishi hamda har yerda xozirligi muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunga kelib zamonaviy radio va televide niye sohasining rivojlanishi insonlarga o‘ziga xos qulayliklarni, katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shu nuqta i-nazardan bitiruv malakaviy ishini o‘rganilganlik darajasini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan,

1. Radio va televide niye sohasining xorijda o‘rganilishi.

2. Radio va televide niye sohasining O‘zbekistonda o‘rganilishi.

SHuningdek, radio va televide niye sohasining xorijda o‘rganilishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ayniqsa Yevropa va Rossiyalik olimlarning qilgan mehnatlari turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan o‘rganildi.

XIX asr oxirida jahonda telefon-telegraf aloqasi faol rivojlanib ulgurgan bo‘lib, bu soha rivoji uchun ko‘plab kabellar ishlab chiqarish talab etilardi. Simli liniyalar qurish uchun katta hajmdagi metal sarflanardi. Shu sababli ham simsiz aloqa yaratish g‘oyasi dolzarb tusga kirib borardi. Birinchi radio aloqa uchun patentni Malon Lumis 1872-yilda olgan bo‘lsa, Germaniyada esa 1888-yilda radioni ixtirochisi sifatida Genrix Gertsani, AQShda esa Devid X‘yuza 1878-yil, shuningdek, Tomas Edison 1875-yil, patentni esa 1885-yil, Bolqon o‘lkalarida esa Nikola Tesla 1891-yil, Belarusiyada Yakova Sarmat Sigizmund, Ottonovicha Narkevicha Iodku 1890-yilda, Fransiyada esa Eduard Branli 1890-yilda, Hindistonda esa Djagadisha Chandra Boshe 1894-1895-yillarda, Angliyada esa Oliver Djozefa Lodja 1894-yil, Braziliyada esa Landelya de Muru 1893-1894-yillarda tan olingan¹.

Birinchi bo‘lib radio to‘lqin orqali axborot almashishni ixtirochisi Italian injeneri Gul‘elmo Markoni hisoblanadi (1895-yilda). Rossiyada esa radiotelegrafni

¹ <http://www.aes.org/aeshc/docs/recording.technology.history/radio.html>

ixtirochisi A.S. Popov hisoblanadi. U 1895-yil 7-may kuni Peterburgda Rus fizik va ximiklari jamiyatining yig`ilishida radio aloqa to`g`risida nutq so`zlab radioaloqani ko`rsatadi.

Televideniye ham murakkab texnikaviy jarayon bo`lib, uning manbalarini uzoq o`tmishdan izlash kerak bo`ladi. Ishonch bilan aytish mukinki, televideniyenning taraqqiyotiga son-sanoqsiz odamlar hissa qo`sishgan. Ya`ni uni yolg`iz bir kishi tomonidan ixtiro qilingan deb bo`lmaydi. Televideniye tasvir elementlarini ketma-ket uzatish XIX asr oxirida portugal olimi A.Di Payva va undan mustaqil ravishda rus olimi P.I. Baxmetov tomonidan ilgari surilgan nazariyaga asoslangan. XX asrning 30-yillariga qadar tasvirlarni analiz va sintez qilishda optik, mexanik qurilmalardan foydalanilgan ularni ishlab chiqishni nemis muhandisi P.G.Nipkov 1884-yil boshlab bergen. XX asrning 30-yillari o`rtalaridan boshlab dastlabki elektron televideniye tizimi paydo bo`ldi¹.

Radio va televideniye sohasidagi o`zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy islohotlar jarayonida insonlar intelektual salohiyatini shakllantirishdagi o`rni, xorijlik tadqiqotchilardan Marc David va Robert Thompsonlar² televideniyenning taraqqiyoti va uning ko`rsatuvlar tayyorlashdagi o`rni masalalarini, Cardwell Sara³ televideniyenning rivojida yangi o`ziga xos usullarni, teleko`rsatuvlarning rang-barangligiga beriladigan e`tabor masalalarini, G.P.Bakulev⁴ esa televideniysi yaratilishi va uning chegara bilmasligini, R.Boretskiy, G.Kuznetsovlar⁵ televideniye jurnalistining kadrda va kadr ortidagi faoliyatini, G.Vachnadze⁶ dunyoda televideniysi yaratilishi va rivojlanishini, N.A.Golyadkin⁷ AQShda televideniyenning axborot tarqatishdagi o`rni, V.Vilchek⁸ televideniysi jamiyat

¹ <http://www.aes.org/aeshc/docs/recording.technology.history/radio.html>

² Marc, David, and Robert Thompson. Television in the Antenna Age: A Concise History. Malden, MA: Wiley, 2005.

³ Cardwell Sarah. Adaptation Revisited: Television and the Classic Novel. – London: Manchester University Press, 2002.

⁴ Bakulev G.P. Televideenie bez granits. – M., 1994.

⁵ Boretskiy R., Kuznetsov G. Jurnalist TV: za kadrom i v kadre. – M. 1990.

⁶ Vachnadze G. Vsemirnoe televideenie. – Tbilisi, 1989.

⁷ Golyadkin N.A. TV informatsiya v SShA. – M., 1996.; Golyadkin N.A. Teleprogrammirovanie v SShA spetsifika i priyomы. – M., 1997.

⁸ Vilchek V. Pod znakom TV. – M., 1987.

taraqqiyotidagi o`rnini, R.I.Golushko¹ televideniyeni tarixiy taraqqiyoti va o`ziga xosligini, M.V.Lukov² jahonda televideniyeni rivojlanish holatini, L.Merkulov³ televideniyeni yaratilishi bilan bog`liq masalalarni ayrim jihatlarini tahlil qildilar.

Mustaqil O`zbekistonda ham radio va televideniye tarixi hamda taraqqiyotini o`ziga hos rivojlanish bosqichlarini tadqiqotchi olimlar o`rganib tahlil qildilar. Jumladan, tadqiqotchilardan M.Muhamedov, F.Fayziyeva, V.Ablyayevalar⁴ XX asr mo`jizasi, televideniye va radioning hayotimizda tutgan o`rni, tarixi hamda taraqqiyoti asoslarini, M.Ubaydullayev⁵ O`zbekiston poytaxti Toshkent shahrining teleko`rsatuvlar vatani ekani, mustaqillik yillarida O`zbekistonda televideniye tarixi va oyinai jahon istiqbollari bilan bog`liq muammolarni, X.Akbarov⁶ O`zbekistonda kino va televideniyening rivojlanish tarixini, F.Muminovlar⁷ bugun kundalik hayotimizni televideniye va radiosiz tasavvur etib bo`lmasligiga e`tabor qratib, O`zbekistonda televideniye rivoji va telejurnalistika asoslari, jurnalistlarni tayyorlash bilan bog`liq masalalarni ayrim jihatlarini tahlil qildilar.

Ko`rinib turibdiki tadqiqotchilar o`z ilmiy tadqiqotlarida dunyoda televideniyening yaratilishining o`ziga xos o`rni masalalarini muayyan bir jihatlarini ilmiy tahlil qildilar biroq jamiyat taraqqiyotida radio va televideniyeni tutgan o`rni masalasi ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyotida radio va televideniyeni tutgan o`rni masalasini o`ziga xos tomonlarini ilmiy asosda, mukammal tarzda o`rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi jamiyat taraqqiyotida radio va televideniyeni tutgan o`rni, radio va televideniyening yaratilish tarixi, o`ziga xos xususiyatlarini hamda

¹ Golushko R.I. Televideniye. – M., 1980.

² Lukov M. V. Televidenie: televizionnaya kartina mira // Znanie. Ponimanie. Umenie. Jurnal, №4 2008.

³ Merkulov D. Televideniyu – 80 let // Nauka i jizn jurnal. – 2006. – № 1.

⁴ Muhamedov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televideniye asoslari. – Toshkent, 2008.

⁵ Ubaydullayev M. Oyinai jahon istiqbollari. – Toshkent, 1993.

⁶ Akbarov X. Kino va televideniye olamida. – Toshkent, 2009.

⁷ Muminov F. Telejurnalistika asoslari – Toshkent: Fan, 2006.

bugungi kundagi rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishdan iborat bo`lib, ana shu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- Tarixiy taraqqiyot jarayonida radio va televideniyening yaratilishi tarixini tahlil qilish;
- Radio va televideniyening jamiyatdagi estetik funksiyalari keng yoritib berish;
- Mustaqil O`zbekiston taraqqiyotida milliy teleradioning o`rni va rolini tahlil qilish;
- O`zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda milliy televideniya va radio sohasida amalga oshirilgan islohotlarning tahlil qilish;
- O`zbekiston Respublikasida radio, televide niye sohasining rivojlanishidagi yutuqlar va o`ziga xos muammolar masalasini ko`rsatib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti va predmeti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob`ekti bo`lib jamiyat taraqqiyotida radio va televide niyi tutgan o`rni, radio va televide niyen yaratilish tarixi, o`ziga xos xususiyatlari masalasi olinmoqda. O`zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda milliy televideniya va radio sohasida amalga oshirilgan islohotlar asosida sohaga berilayotgan e`tiborni aniq dalillar asosida tahlil qilish bitiruv malakaviy ishining predmeti bo`lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan milliy televide niye va radio sohasiga oid amalga oshirilgan islohotlar mazmuni-mohiyati, teleradioga oid munosabatlarni yanada takomillashtirish masalalariga bag`ishlangan asarlarida bayon etilgan fikrlar, chiqarilgan normativ hujjatlar, qarorlar mazkur bitiruv malakaviy ishining nazariy – metodologik asosi bo`lib xizmat qildi.

Ko`zlangan maqsadga erishish, belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta`minlash maqsadida milliylik va umuminsoniylikning birligi tamoyillari hamda analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylikning birligi kabi usullarga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati nihoyatda keng qamrovli bo`lib, tadqiqotning xulosa qismidagi tavsiyalardan amaliyatda, ya`ni yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hamda oiladagi, maktabgacha ta`lim, boshlang`ich ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, oliy va o`rta maxsus kasb ta`limi muassasalarida keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan ta`lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I. Bob. Tarixiy taraqqiyot jarayonida radio va televideniyeni rivojlanishi

1.1. Radio va televideniyening yaratilishi tarixi

XIX asr oxirida jahonda telefon-telegraf aloqasi faol rivojlanib ulgurgandi. Biroq bu soha rivoji uchun ko`plab kabellar ishlab chiqarish talab etilardi. Simli liniyalar qurish uchun katta hajmdagi metal sarflanardi. Shu sababli ham simsiz aloqa yaratish g`oyasi dolzarb tusga kirib borardi. Simsiz telegraf – “radio” (tarjimasi - “nur taratish”) elektr to`lqinlar aloqasi bo`lib¹, birinchi radio aloqa uchun patentni Malon Lumis 1872-yilda olgan bo`lsa, Germaniyada esa 1888-yilda radioni ixtirochisi sifatida Genrix Gertsani, AQShda esa Devid X`yuza 1878-yil, shuningdek, Tomas Edison 1875-yil, patentni esa 1885-yil, Bolqon o`lkalarida esa Nikola Tesla 1891-yil, Belarusiyada Yakova Sarmat Sigizmund, Ottonovicha Narkevicha Iodku 1890-yilda, Fransiyada esa Eduard Branli 1890-yilda, Hindistonda esa Djagadisha Chandra Boshe 1894-1895-yillarda, Angliyada esa Oliver Djozefa Lodja 1894-yil, Braziliyada esa Landelya de Muru 1893-1894-yillarda tan olingan.

Tarixdan ma'lumki bunday yangi aloqaning vujudga kelishi Rossiyalik 36 yoshlik o'qituvchi Aleksandr Popov va Italiyalik 20 yoshlik talaba Gul`elmo Markoni nomlari bilan bog'liq. Birinchi bo`lib radio to`lqin orqali axborot almashishni ixtirochisi Italian injeneri Gul`elmo Markoni hisoblanadi (1895-yilda). Rossiyada esa radiotelegrafni ixtirochisi A.S. Popov hisoblanadi. U 1895-yil 7-may kuni Peterburgda Rus fizik va ximiklari jamiyatining yig`ilishida radio aloqa to`g`risida nutq so`zlab radioaloqani ko`rsatadi. Umuman olganda radio uskunasining yaratilishi Aleksandr Popovning ixtirosi bo`lib, u aloqa sohasida katta yangilik va olamshumul voqeа hisoblanadi. U yaratgan qabul qiluvchi moslama har qanday elektromagnit tebranishdan ta'sirlanardi. Popov moslamasiga 2,5 metrli antenna o'rnatganligi uning sezgirligini yanada oshirgandi. U o'z yangiligi uchun patent olishga intilmadi, faqat vaqtli nashrda ixtirosini bayon etdi, xolos. Bu uning xatosi edi. «Elektr tebranishlarni aniqlaydigan va qabul qiladigan

¹ <http://www.aes.org/aeshc/docs/recording.technology.history/radio.html>

moslama» deb nomlangan bu ixtiro aslida radiopriyomnik edi. Shu tariqa, 1895-yil 7-may kuni birinchi marotaba Aleksandr Stepanovich Popov tomonidan o‘z laboratoriyasida ixtiro etilgan uchqunlik radiouzatgichdan radiosignallar masofalarga simsiz uzatilgan.

1894–1895 yillarda 20 yoshli Gulelmo Markoni Gerts, Branli va boshqalarning asarlari bilan tanishib, Gerts moslamasi yordamida tomorqa uchastkasi uzoqligida signal uzatishga erishadi va yil oxiriga kelib, uning uzunligini bir milga yetkazadi. Shundan so‘ng Angliyaga kelib, radiotovush uzatish majmuasi uchun patent oladi. Markonining ixtirosi qabul qilish va uzatish majmuasidan iborat edi. U uzatish moslamasida Popovning priyomnigi singari antennadan foydalandi. Markoni qabul qilish va uzatish moslamalarining ikkalasiga ham antenna o‘rnatdi. Priyomnikning sezgirligi yuqori edi. Aslida, Markoni Popovning ixtirosini yanada yuqori pog‘onaga ko‘targandi. Katta moliyaviy yordam olgan Markoni o‘z ixtrosini yanada rivojlantirishga erishdi va uni amaliyotga joriy etdi. Xabar uzatish masofasi ham uzayaverdi. Markoni birinchi bo‘lib, okean uzra radioxabar uzatishga muvaffaq bo‘ldi. Italiyalik yosh ixtirochi amalda radioaloqa tizimini joriy etib, mazkur sohaga munosib ulush qo‘shdi.

Angliyalik Oliver Lodj radio ixtirosiga yaqinroq yondashdi. U elektrnomagnit to‘lqinining tarqalishi va ushlab olish muammosini o‘rtaga tashladi. Boshqalar qatori Popov ham Lodjning bu g‘oyasi va tajribasini amalda sinab ko‘rdi. Popov «chaqmoq razryadlarini uzoq masofada turib qayd etuvchi» deb nomlangan qurilmani namoyish etdi.

Ixtirochi olimlar A.S. Popov va G. Markonining insoniyat taraqqiyotidagi beباو kashfiyotlari yuksak baholanib, YUNESKO 28-Bosh konferensiyasining qaroriga muvofiq, 1995-yilda jahonda «Radioning 100 yilligi» nishonlandi. Shu tariqa, radio ixtirosi, radioaloqa texnologiyalari va radioeshittirish sohasining taraqqiyotiga munosib baho berildi. Buyuk ixtirochilarining mehnatlari mahsulidan butun jahon miqyosida keng foydalanish maqsadida 1902-yildayoq Rossiya Pochta va telegraf boshqarmasi Angliya «Markoni» radiotexnika firmasi bilan

hamkorlikda tijorat radiostansiyalarini qurish, xalqaro konvensiyalarga barcha davlatlardagi ochiq dengizlarda harakatlanayotgan dengiz kemalarini dengiz qirg‘oqlari bilan aloqa qilish imkoniyatlari bilan ta’minlashga chaqirdi. 1912-yilda umumiy foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan va Rossiya janubidagi dengiz kemalarini Aleksandrovsk-Petrovsk portlari bilan bog‘lovchi radiotelegraf liniyalari ishga tushirildi, natijada dengiz kemalarini Kaspiy dengizining o‘ng va chap qirg‘oqlari bilan aloqa o‘rnatish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi.

1915-yilda birinchi marotaba mamlakatimizda, Toshkent shahrida katta quvvatli, uchqunli, qabul qilish-uzatish radiostansiyasi qurilib, ishga tushirildi. Katta elektromagnit bilan uchqunli razryad bo‘lishi ta’minlandi. Uning quvvat bazasi akkumulyator batareyasi va ikkita 160 kvt’li dizel generatordan iborat edi. Qalin simlar tizimi bilan nurli antennalar orqali o‘rnatilgan oltita 90 metrli metal ustun «Simens-Galske» firmasi tomonidan loyihalangan va qurilgan edi. Radiostansiyani qurish uchun kerak bo‘ladigan 60 hektarli yer maydoni temir yo‘l vokzalidan uzoq bo‘lmagan, shahar chegarasiga yaqin bo‘lgan joydan tanlandi. Bu radiostansiyani qo‘riqlash va xizmat ko‘rsatish vazifasi radiostansiyadan uzoq bo‘lmagan harbiy polkning xazinachisiga yuklandi.

Birinchi radiogramma Moskva-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanayotgan poyezd haqida edi. Davr talabiga ko‘ra soha faoliyati markazlashtirildi. Mahalliy aloqachilarga yordam ko‘rsatish uchun 1920-yilda Moskvadan Narkompochtel vakili 5 nafar radiotelegrafist, 2 nafar elekrotexnik hamda 10 ta radiouskunalar bilan mamlakatimizga yuborildi¹. Apparatlar Samarqand, Xiva, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlariiga o‘rnatilib, ular orqali hududlar hamda Rossiya Federatsiyasining boshqa shaharlari bilan mustahkam aloqa qilish imkoniyatlari yaratildi. Shoshilinch ravishda boshqa markaziy shaharlar, Kaspiy dengizi va ular orqali Baku va mamlakatimizga radioaloqa liniyalari o‘rnatildi. 1919-yil dekabr oyidan boshlab, Moskvadan radiostansiya efiriga Rossiya telegraf agentligining yangiliklarini uzata boshladi. Toshkentdan esa javob telegrammasi

¹ www.wikipedia.ru

«Ovoz tiniq, baland, hatto telefon membranasiga urayapti» degan mazmundagi matn yuborildi.

O‘zbekistonda 1924-yildan boshlab, radioaloqa qisqa muddatlarda, tezlik bilan jadal rivojlana boshladi. Shu yillarda radiostansiyalarda tajribali sinov ishlari olib borildi. O‘zbekistonda 1927-yil 11-fevralda radioeshittirishlarning tashkil etilgan yoki «tug‘ilgan kuni» deb belgilandi, sababi shu kuni yangi Toshkent radiostansiyasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tgan edi. 1929-yil sentabr oyida Toshkent shahrida “Toshkent radiomarkazi” ishga tushgan bo‘lib, bu markazning ochilishi respublikada radioeshittirish ishlarining rivojlanishiga katta asos bo‘ldi¹.

Respublikada berilayotgan radioeshittirishlar ko‘lami kengaytirilib borilishi, 1931-yilda Toshkentda Radioeshittirish Qo‘mitasining tashkil etilishiga asos bo‘ldi. Keyinchalik ushbu Qo‘mita Davlat Radiokomitetiga aylantirildi. Vaqt o‘tgan sayin Respublikada radionuqtalarning soni ko‘payib, jumladan, klub va choyxonalarda, qishloq xo‘jaligi sohasida va mashina-traktor stansiyalarida, maktablarda tashkil etildi. Bundan tashqari, shaxsiy radionuqtalar qo‘yila boshladi.

Shunday qilib, radio madaniyatning eng muhim sohasiga aylana bordi. 1934-yilga kelib, respublika aholisi har kuni 7,5 soat ichida musiqali (49,3%), adabiy-dramatik (4,4 %), bolalar uchun (26%), o‘quv-ta’limiy (6,6%), axborot (13,7%) ruknidagi eshittirishlarni tinglash imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Qishloq joylarida ham radioaloqa sohasi keng ko‘lamda rivojlana boshladi. 1935-yilda Toshkent viloyati Do‘rmon aholi punktida 30 ta qisqa to‘lqinli qabul qilish antennalari bilan ta’minlangan, 60 hektar yerni egallagan, 2-sonli qabul qilish radiostansiyasi ishga tushirildi. Shuningdek, Yalang‘och aholi punktida 15 ta antenna bilan jihozlangan 16 hektarli yerga joylashtirilgan 4-sonli radiostansiya ekspluatatsiyaga qabul qilindi. Qabul qilish radiostansiyalarining ishga tushirilishi bilan bir qatorda, shu yil Yunusobod mavzesida 5-sonli uzatish radiostansiyasi qurildi. Bu radiostansiya 41 hektarli yerga joylashgan bo‘lib, unga 16 ta qisqa to‘lqinli qabul qilish antennalari va 11 dona 5 kvtdan 20 kvt quvvatgacha bo‘lgan uzatish antennalari

¹ <http://www.aes.org/aeshc/docs/recording.technology.history/radio.html>

joylashtirildi. Natijada barcha davlatlar poytaxtlari bilan aloqa bog‘lash uchun radioaloqa kanallari tashkil etildi.

1940-yilda katta quvvatli 1-radiostansiya asosida Toshkent radioaloqasi va radioeshittirish direksiyasi tashkil etildi hamda ushbu direksiya 1941-yil 27-martda O‘zbekiston radioaloqasi va radioeshittirish direksiyasiga aylantirildi. Radio xizmatidan keng ko‘lamda foydalanish imkoniyatlari katta obyektlar «Langar» kanali, Katta Farg‘ona kanali qurilishida o‘z samarasini berdi. 1940-yilning oxirlariga kelib, O‘zbekistonda radionuqtalarning soni 72 mingtaga yetdi.

1941–1945 yillarda radiostansiya jamoasi radioaloqa va radioeshittirish uskunalarining uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun juda katta hissa qo‘shdi hamda avtomashinalarni harakatdagi radiostansiyalar bilan ta’miladi. Shuningdek, Moskva shahrida katta quvvatli radiostansiyasi qurilishida ishtirok etdilar. Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi O‘rtaovul mavzesida katta quvvatli radiotarqatish stansiyasini qurish uchun 87,92 hektar yer ajratildi va qurilish ishlari boshlab yuborildi. Qurilish ishlari boshlanib, ikkita mustaqil ishlaydigan 6 kvoltli elektruzatgich Bo‘zsoy kaskad GES’ning 14 va 18-bo‘linmalariga o‘rnatildi.

1949-yil dekabr oyida yuqoridagi obyektlardagi qurish-montaj va moslashtirish ishlari yakunlandi va 1950-yil 1-yanvardan boshlab, katta quvvatli RV-154, 150 kvtli, uzun to‘lqinli diapazon bilan ishlatishga mo‘ljallangan radioto‘lqinlar uzatgichini qurish ishlari boshlandi. Antennalar balandlikka mo‘ljallangan metal machta bilan qurildi. Mazkur radiostansiya orqali uzatilayotgan birinchi dasturni O‘zbekiston hududiga (Buxorogacha) va chegaradosh respublikalarga ham uzatish imkoniyati yaratildi.

O‘tgan asr 1950-yillaridan keyin mazkur aloqa sohasi jadal rivojlandi va mamlakatda, ayniqsa, qishloq va olis masofalarda joylashgan aholi hududlarida radiofikatsiya ishlariga katta e’tibor qaratildi. Barcha joylarda radiouzellar barpo etilib, 1960-yillargacha ularning soni 470 tadan oshib ketdi. Hukumat Qaroriga muvofiq respublikada 1963-yilga kelib, radiouzellar sifatini yaxshilash maqsadida yagona radiofikatsiyalash tarmog‘i tashkil etildi.

Ma'lumki, XX asr oxirlariga kelib, radioaloqa sohasida keskin o'zgarishlar amalga oshirildi. Barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham ko'plab radiostansiyalar qurildi. Radio uskunasining ham yangidan-yangi turlari kashf etilib, yanada takomillashib bordi. Radio boshqa uskunalar masalan, televizor, telefon, transport va boshqa qurilmalar asosida ham o'rnatilib, baralla yangrayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Qo'limizdagи mobil telefonning tugmasini bosib, sevimli radioeshittirishlarimizni tinglay olamiz. Shu bilan birga, radio o'z eshittirishlari mazmunining boyib, tezkor yangiliklardan xabardor qilib turishi bilan ham insoniyatning tunu-kun hamrohi, yaqin maslahatchisi, ishda hamkor, do'stiga aylanib qolgan. Tong sahardan beriladigan yoqimli ohanglari, foydali eshittirishlari bilan ma'naviy oziqa manbai sifatida inson hayotining mazmun-mohiyatini to'ldiradi. Har yili 13-fevral Jahon radio kuni sifatida nishonlanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligi e`lon qilinishi bilan hayotimiz mazmuniga davlat radiostansiyalaridan tashqari FM radiostansiyalaridan eshittirishlar ham kirib keldi. Kun sayin ularning soni ortib, sifati bo'yicha o'zaro raqobat muhitida ishlay boshladi. Odatda, har tong kunimizni radio sadolari bilan boshlaymiz. Qandaydir yoqimli yangilik yoki kuy-qo'shiq ohanglarini tinglab, o'qish va ishga otlanamiz. Bu ohanglar kun davomida qalbimizni ruhlantirib, ilhom baxsh etadi. Qayda bo'lmaylik, uyda, transportda, ish joylarida hatto mobil telefonimiz vositasida bo'lsa ham radioeshittirishlari doimo bizga hamroh bo'ladi.

Mamlakatimizda radio aloqa xizmati yuz yillik tajribaga ega. Bir asrdan ortiq vaqt mobaynida radio xalqimizga jamiyat hayotining turli sohalarida muhim ahamiyatga molik xizmatlarini taqdim etib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 14 ta radiostudiya mavjud. Radioning o'ziga xos xususiyatlaridan biri undagi jonli so'z-asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Radio-axborot tarqatishning tezkor uslubi. Radio-axborotning asosiy xususiyati ma'lumotlarning hujjatlarga asoslanganligidir.

Shuningdek, Namangan shahrida ham radioni ishga tushurilishi to'g'risidagi turli xil ma'lumotlar bor. 1932-yilning bahorida Namanganda birinchi marta radio

ovozi yangragan. Dastlab Namangan radiosи о'з faoliyatini Mulla Qирг'из madrasasi xonaqolaridan birida boshlagan. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra, 1928-yilda Uychi ko'chasida Mulla Qирг'из madrasasi binosiga pochta, keyinroq radouzel joylashtirilgan. Birinchi qavatda aparatlar joylashgan xona, ikkinchi qavatda esa studiya jihozlangan. Ammo u vaqtida birorta xonadonda radio yo'q edi. Shuning uchun, radio orqali axborot, mahalliy sozanda va xofizlarning chiqishlari shahar bo'y lab simyog'ochlarga o'rnatilgan bor yo'g'i 15 ta radiokarnay orqali eshittirilardi. Namanganda chiqadigan «Udarnik» («Zarbdor») gazetasi xodimlari radiogazeta tayyorlashni o'z zimmalariga olishgan. Shunday qilib, Namangan shahrida radio ishga tushirilishida 1924-yilda O'rta Osiyoda birinchi bo'lib tashkil topgan O'zbekiston radiosи va Respubлиka «Radio do'stlari jamiyati» hamda O'zbekiston kasaba uyushmasining qo'shgan hissasi katta bo'lgan. Chunki, bu tashkilotlar zimmasiga respubлиka shahar, qishloq, kolxoз va sanoat korxonalarini, choyxona va klublarni radiolashtirish vazifasi yuklatilgandi. 1990-yildan Namangan viloyatida telestudiya tashkil etilib teleko'rsatuвлar berila boshladи. 2000-yildan yangi telemarkaz qurilib foydalanishga topshiriddi. Telemarkaz Germaniya "Simens" firmasining zamonaviy televideoapparaturasi bilan jihozlandi.

Mustaqillik yillarda Namangan shahrida radio o'ziga xos tarzda rivojlandi. 2004-yil 1-aprelda Namangan televideniyasi qoshida Oltin zamin radiosи tashkil etildi va o'z faoliyatini boshladи. Shu davrdan boshlab radio FM 103,6 to'lqinida yangray boshladи. 2006-yilda esa radio Internetning Onlain tizimiga ulandi. Shundan so'ng Internet orqali "Oltin zamin"ni butun dunyo eshitish imkonи tug'ildi. "Oltin Zamin" radiosini to'g'ridan to'g'ri Andijon, Namangan, Farg'ona, Bishkek, Konibodom, O'sh, Isfara va Dushanbeda eshitish mumkin. Hozirgi kunda Iste'dod, Qadriyat, Tashrif, Futbol chorrahalarida, Shukrona, Muhabbat toshqinlari kabi eshittirishlari muxlislar qalbidan joy olgan.

Dastlabki paytda radio Morze alifbosi yordamida ma'lumotlarni uzatish uchun qo'llanilgan edi. Hozirgi kunda ham bu usuldan, masalan, halokat yuz bergen yerdan signallarni uzatishda foydalaniлadi. «Radio» so'zining o'zi

«radiotelegraf» so‘zining qisqartma shaklidir¹. To‘g‘risini aytganda, hozirda ham efirning (havo to‘lqinlarining) katta qismi xavfsizlik bilan bog‘liq signallarni qabul qilish bilan banddir. Radio politsiya va boshqa ko‘psonli qutqaruvchi xizmat sohalarining faoliyati uchun juda zarur. Dengizda esa har uch minutda, uzatilgan halokat signallarini qabul qilish uchun, «radiosukunat» muddati joriy qilingan. Texnik imkoniyatlar taraqqiyoti shunga olib keldiki, radio orqali ovoz va musiqani uzatish sharoitlari vujudga keldi. Shu tariqa radio har bir inson hayotiga yaqin bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda radio keng jamoatchilik uchun eng avvalo dam olish va axborot qabul qilish vositasi bo‘lib turmushimizning tarkibiy qismiga aylandi. Bugungi kunda maxsus rasmiy markaziy radiostansiyalar ham, bundan tashqari ko‘pgina mahalliy va mintaqaviy radiostansiyalar ham mavjud bo‘lib, ular o‘z radiotinglovchilariga siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy axborotlar, eshittirishlar, konsertlar, musiqa, sport yangiliklari, o‘yinlar kabi xilmayxil dasturlarni taklif etadi.

Televideniye ham murakkab texnikaviy jarayon bo‘lib, uning manbalarini uzoq o‘tmishdan izlash kerak bo‘ladi. Ishonch bilan aytish mukinki, televidenyening taraqqiyotiga son-sanoqsiz odamlar hissa qo‘sishgan. Ya‘ni uni yolg‘iz bir kishi tomonidan ixtiro qilingan deb bo‘lmaydi. Televidenyening ixtiro qilinishiga olib kelgan voqealar zanjiri 1817-yilga, ya‘ni shved kimyogari Yens Berseleus selen kimyoviy elementini kashf etgan davrga borib ulanadi². Keyinchalik, selen orqali o‘tkazilgan elektr tokining miqdori selenga ta`sir ko‘rsatadigan yorug‘lik miqdoriga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu xususiyat «fotoelektr» hodisasi deb ataladi. 1875-yilda bu kashfiyat amerikalik ixtirochi G.Kerriga birinchi, hali takomillashmagan televizion qurilmani yaratish imkonini berdi, u buning uchun fotoelektr elementlardan foydalandi. Predmetning fokusini linza orqali fotoelektr elementlar bo‘limiga to‘g‘riladi, natijada bo‘limdagi har bir element cho‘g‘lanma lampaga o‘tuvchi elektrning miqdorini o‘zicha «nazorat

¹ <http://fancy-journal.com/kulturnaya-zhizn/stil-zhizni/4400-kratkaya-istoriya-radio/>

² Джакония В.Е. Телевидение. - Москва: Горячая линия – Телеком, 2002. – С. 311

qiladigan» bo`ladi. Predmetning xira ko`rinishi fotoelektr elementlarda aks etib, cho`g`lanma lampa sirtida gavdalanadi.

Televideniye ixtirochiligida shundan keyin qo`yilgan qadam 1884-yilda Pol Nipkou ixtiro qilgan «kengaytirilgan tasvir»dir. Bunday tasvirga, bir tomondan, fotoelektr elementlar qarshisiga aylanib turadigan bir necha teshiklar ega diska hamda tomoshabin ko`z o`ngida aylanib turadigan yana bir diska yordamida erishiladi. Aslini olganda, bu ham Kerri ixtiro qilgan tuzilmaga o`xshashdir. 1923-yilda birinchi marta sim orqali tasvirni uzatishga erishildi, bunga Angliyada Berd va AQSHda Jenkins muvaffaq bo`ldi¹. Keyin televizion kameralar rivoji bobida ulkan odimlar tashlandi. Vladimir Zvorikin va Fil Farnsuort har biri o`zicha mustaqil ravishda «tasvir uzatuvchi trubka» deb nom olgan kameralarni yaratdilar. 1945-yilda bu ikkala trubka ham yanada takomillashtirilgan trubkalarga almashtirildi. Hozirgi televizorlarda «katod - nurli trubka» deb atalgan trubkalar ishlatiladi. Bu trubkalarda elektron pushka bo`lib, u ekran tasvirini, uzatuvchi televizion kameralardagi nurlar misoli, qayta nurlantirib nusxa ko`chiradi va natijada biz tasvirni ko`ramiz. Turli mamlakatlardagi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida hozirgi zamon televideniyesining bunyodga keltirish yo`lida xilma-xil ixtiolar qilinganligini ko`rish mumkin.

Televideniye (yunon.τήλε - *uzoq* va lot. video - *ko`raman*) harakatlanayotgan tasvir va tovushni masofadan uzatish tizimidir². Televideniyening ishlash prinsipi tasvir kadrini satrlarga bo`lib uzatishga asoslangan. Kadrlar almashinishi chastotasi tasvir o`zgarishi tezligiga qarab tanlanadi.

Televideniye (“tele” ruscha “videniye”-ko`rish) fan, texnika va madaniyatning ko`rinadigan axborotlar, harakatlanuvchi tasvirlarni radioelektron vositalar yordamida muayyan masofaga uzatish bilan bog`liq sohasi, axborotlarni tarqatish vositalaridan biri. Insoniyat o`zi yashab turgan joydan uzoqdagi narsalar va voqealarni ko`rish istagi bilan hamisha band bo`lib kelgan³. Bu istak ko`p

¹ Edgerton, Gary R. The Columbia History of American Television. New York: Columbia University Press, 2009.

² Marc David and Robert Thompson. Television in the Antenna Age: A Concise History. – Malden: Wiley, 2005.

³ Джакония В. Е. Телевидение. - Москва: Горячая линия – Телеком, 2002. – С. 310.

xalqlarning afsona va ertaklarida o`z aksini topgan. Masalan, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida bu istakni badiiy shaklda aks ettirgan (Farhod Shirinining jamolini ko`zguda ko`rib oshiq bo`lib qoladi). Xalqlarning bu istagi, asosan, elektronika "sehrli ko`zgu" ("oynai jahon") ga aylangan va bu XX asrda ro`yobga chiqdi.

Televideniye tasvir elementlarini ketma-ket uzatish XIX asr oxirida portugal olimi A.Di Payva va undan mustaqil ravishda rus olimi P.I. Baxmetov tomonidan ilgari surilgan nazariyaga asoslangan. XX asrning 30-yillariga qadar tasvirlarni analiz va sintez qilishda optik, mexanik qurilmalardan foydalanilgan ularni ishlab chiqishni nemis muhandisi P.G.Nipkov 1884-yil boshlab bergen. XX asrning 30-yillari o`rtalaridan boshlab dastlabki elektron televideniye tizimi paydo bo`ldi.

Ma`lumki, ommaviy axborot vositalari orasida televideniye eng kenjasib bo`lib, tasvirni bir manzildan, boshqa manzilga uzatishga urinish ishlari XIX asr o`rtalaridan olib borilgan. Ingliz mexanigi A.Benua surat xolidagi tasvirni uzatish apparatini 1843-yili ixtiro qilgan. A.Benua qog`ozday ingichka qalay parchasiga tasvir tushirib, maxsus siyoh yordamida yozuvsiz yozib, qalay taxtachani tasvir tarqatuvchi apparatga o`rnatgan. Tasvirni qabul qiladigan apparatga esa elektr toki ta`sirida xiralashadigan maxsus, qog`oz o`rnatgan. Tasvirni elektr quvvati yordamida masofaga uzatadigan yana bir texnik uskuna loyihasi 1858-yilda Rossiya rasmiy doiralarida muhokama qilganligi haqida ham ma`lumotlar bor. 1897-yili nemis fizik olimi K.F. Braun tomonidan yana bir muhim ixtiro qilinadi¹. U osselograf uchun nur tarqatuvchi elektron trubka yaratdi. Ana shundan so`nggina Peterburg Texnologiya Instituti professori Boris Lvovich Rozing televizion tasvirni qabul qilish, uni bir manzildan boshqa manzilga uzatishga muvaffaq bo`ladi. 1907-yili Boris Rozing (1869-1933) tasvirni masofaga uzatishda nur tarqatuvchi elektron trubkani qo`llashni taklif etadi.

1911-yili 22-mayda Boris Rozing yorug` fonda bir-biriga parallel ikkita qora chiziqni nur tarqatuvchi elektron trubkada qabul qilishni tajribada sinab ko`rdi.

¹ Луков М. В. Телевидение: телевизионная картина мира // Знание. Понимание. Умение. Журнал, №4 2008.

Toshkentning Shayxontohur mavzesidagi Bola masjid ko'chasi, 74-uyda, (hozirgi Navoiy ko'chasidagi 199-uy, Toshkent televideniyesi markazi yonida) Yusufxon aka Mirzamuhamedovning uyida 1925-1928-yillarda tasvirni ham uzatuvchi, ham qabul qiluvchi, tomonlari to'la elektron tizimiga asoslangan hozirgi zamon televideniyesi yaratilib, jahonda birinchi bo'lib harakatdagi haqiqiy televizion tasvir qabul qilindi. Ushbu ixtiro asoschilari o'sha paytda Eski shaharning so'lim hovlisidagi boloxonali uyning bir xonasida yashovchi Boris Grabovskiy bilan Ivan Belyanskiylar edilar.

Boris Grabovskiy yosh tashabbuskor olim, iste'dodli muhandis bo'lsa, Ivan Belyanskiy odamlar bilan tez til topisha oladigan, mohir tashviqotchi va zo'r tashkilotchi edi. Toshkentning ana shunday minglab uylariga o'xshagan bir xonardonida XX asrning haqiqiy mo'jizasi – televideniye ixtiro qilinayotgan edi. Shu uyda Grabovskiy hali hech kimga ma'lum bo'lmagan, hatto biron bir natija bo'lishi yoki bo'lmasligiga ham kafolat bera olmaydigan mo'jiza ustida tajribalar olib bormoqda edi. Jahon olimlari bosh qotirayotgan bu sirni kimga ochilishi ham noma'lum edi.

Boris Grabovskiyning orzulari katta edi. U hayotni uning barcha shakl-shamoyillarida, siymolarda, keyinroq esa rangli va xatto hajmdagi-stereoskopik tasvirda ko'rsatishni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. B.Grabovskiy O'rta Osiyo Davlat universitetining fizika laboratoriyasidagi chizmalarini, Bola masjid ko'chasidagi ustaxona asbob anjomlarini ham xuddi ana shu maqsadga yo'naltirgan edi. Bu dunyoda hali biron bir olim erisha olmagan maqsad va rejalar edi.

Yangi tanishi, universitet professori Gavril Popovning turli xil kitoblarga boy shaxsiy kutubxonasiidagi ilmiy-texnik asarlar televideniye sirlarini ochishda yosh ixtirochiga juda qo'l keldi. Shu yerda u Peterburg texnologiya instituti professori B.L.Rozingning bu sohadagi ilmiy ishlari bilan tanishadi.

B.L.Rozing o'zi yaratgan apparatlarda tasvirni masofaga uzatish va boshqa nuqtada uni qabul qilishga erishgan edi. Bu sohani nazariy

qismini chuqur o‘rganib chiqqan B.P.Grabovskiy tasvir faqat elektron oqimi yordamida uzatilib, elektron oqimi yordamida qabul qilinishi kerak, degan qat’iy xulosaga keladi. U tasvirni uzatishda o‘sha paytda ko‘pchilik diqqat e’tiborida turgan mexanik yo‘nalishining istiqboli yo‘qligiga to‘la ishonch hosil qiladi. Grabovskiyning to‘g‘ri yondoshuvi unga qimmatga tushdi. Sababi, jahonda TV tasvirini uzatishni mexanik usulida ishlayotgan doiralar ko‘pedi.

1925-26 yillar B.Grabovskiy tasvirni masofaga uzatish bo‘yicha bir qator elektron asbob-uskunalar yaratadi. Bu uskunalarni Toshkentdagi elektr quvvati ishlab chiqaradigan hamda undan foydalanadigan shu paytdagi yagona tashkilot - «Toshgestram»da, shuningdek Toshkentdagi remont-mexanika zavodida, O‘rta Osiyo Davlat Universitetining (Xozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti) fizika laboratoriyasida yaratadi. Lekin yosh ixtirochilarda hali ilm va tajriba yetishmas edi.

1925 yil 9 noyabr kuni ixtirochilar V.I.Popov, B.P.Grabovskiy, N.G.Piskunovlar nomiga ixtiro va kashfiyotlar ishlari bo‘yicha Davlat Qo‘mitasining 4899-raqamlı guvohnomasi beriladi. Patent berishdan avval esa bu sohada jahonda qilingan qariyb barcha ishlar sinchkovlik bilan o‘rganib chiqildi. Nihoyat 1928 yil B.Grabovskiy, N.Piskunov, V.Popovlarning katodli «Telefot»iga patent beriladi. Bu Toshkent «Telefot»ining xalqaro miqyosda dastlabki tan olinishi edi.

Ekspertlar xulosasiga ko‘ra 1925 yil 14 noyabr kuni Peterburgdagi «Svetlana» zavodi toshkentlik ixtirochilar buyurtmasi bo‘yicha «Telefot» elektron trubkasini tayyorlashga kirishadi. 1925 yilning o‘zida o‘zbekistonlik ixtirochilarning elektron trubkasi Peterburgdagi «Svyazelektro» zavodlar trestining ekspertlari: D.A.Rojanskiy, L.I.Mandelshtamp, P.I.Lukirskiy, M.A.Shaelen, A.A.Chernishev, N.D.Papaleksi va BL.Rozing kabi yirik olim va mutaxassislar tomonidan muhokama qilinadi.

1928-yilning 4-avgust kuni teletasvirni uzatuvchi apparat ko‘chaga o‘rnataladi va “Xiva” kinoteatri oldida telemajmuaning tasvirni qabul qiluvchi

qismida o'tib ketayotgan tramvay ko'rindi. Bu dunyoda birinchi bor ko'chada to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatilayotgan telereportaj bo'lib bu o'sha davrda Toshkentlik ixtirochilarning katta g'alabasi edi.

Jahondagi birinchi bu telereportaj kinohujjatchilar tomonidan kinolenta tasmasiga tushiriladi va 1920-1930 yillarda Toshkentning barcha kinoteatrлarida film namoyish qilishdan avval qo'yilar edi. Ayrim tadqiqochilar Toshkent elektron televideniyening vatani sifatida tilga olishadi, lekin bu hamma tadqiqotchilar orasida tan olingan yagona fikr emas. Masalan, arman olimlari «oq qora va rangli televideniyening asoschisi O.A.Adamyandir», degan fikrni olg'a suradilar. Bunga o'xshash boshqa nuqtai nazarlar ham bor (rivojlangan mamlakatlarda). Shu bilan bir qatorda, nufuzli mutaxasislar ishlari, shular qatorida televizion jurnalistika sohasidagi yetakchi olim A.Ya.Yurovskiy ishida Toshkentlik ixtirochilar televide niya asoschilari deb tan olishgan.

1931 yil 1 oktyabrda Moskvada muntazam tajribaviy teleko'rsatuвлar boshlandi, ularni Smolensk, Leningrad (Sank-Peterburg), Kiev, Odessa, Xarkov, Nijniy Novgorod, Tomsk radiokonstruktordari qabul qilishlari mumkin edi.

Bir vaqtning o'zida boshqa mamlakatlarda ham televide niye rivojlanib bordi. Rozing ishini davom ettirayotgan shogirdlaridan biri S.I.Kitaev 1931 yil yangi, kuchliroq uzatuvchi trubka yaratdi. «Ikonoskop» nomini olgan bu moslamaning yangiligi televizor ekranining kattalashtirilganidir. 1931 yilning o'zida B.L.Rozingning boshqa shogirdi, AQShda yashovchi V.K.Zvorikin xuddi shunday apparatni yaratib, uni patentlashtirdi.

1931 yili Parijda birinchi marta tasvirni masofaga uzatish amalga oshirildi. Bu milliy konservatoriya va oliy elektrotexnika o'quv yurtida bo'lib o'tdi. 1932 yili Fransiyada tajribaviy telestudiya ochildi. 1935 yili esa Eyfel minorasidan muntazam ko'rsatuвлar uzatila boshladi.

1933 yili P.V. Shmakov va P.V. Timofeev yangi uzatuvchi trubka yaratdilar. O'zining sezuvchanligi bo'yicha ikonoskopdan ustun turganligi bois, u «superikonoskop» nomini oldi.

1934 yil 15 noyabrdagi mexanik televideniyening muntazam ko'rsatuvlari boshlandi. Ular efirga yarim kechadan keyin, xalaqit beruvchi shovqinlar kam bo'lgan paytda namoyish etilgan. Bu davr televizorlari 6x9 sm.li ekranga ega bo'lib, ularning barcha detallari va televizor yaratish uskunalarini Sovet Ittifoqida ishlab chiqarilgan.

1935 yili sobiq Ittifoq televideniyesi tarixida yangi bosqich boshlandi. Leningraddagi Butunittoq televideniye ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilindi. Uzatuvchi – qabul qiluvchi apparatlari texnikasining rivojlanishi mexanik televideniyeni elektron televideniyega almashtirishga olib keldi.

Ikkinci jahon urushi davrida televideniye rivojlanishi deyarli barcha davlatlarda to'xtab qoldi. 1946 yili AQShda 6 telestansiya ish olib bordi. Shu yili iyun oyida Angliyadagi BI-BI-SI yana o'z faoliyatini boshladi. 1948 yilgacha to'rt davlat – Sovet Ittifoqi, AQSh, Angliya va Fransiyada televideniye mavjud edi.

1949 yili sobiq ittifoqda birinchi ko'chma televizion stansiyaniig tashkil qilinishi televideniyening texnik tarixida katta qadam bo'ldi. Shu yilning o'zida ko'rsatuvlar 625 satrda olib borila boshlandi, bu jiddiy yutuq bo'lib, tasvir sifatini oshirishga imkon berdi. Shu yili yana sobiq ittifoqda arzon KVN – 49 (nomi apparat ixtirochilarining bosh harflaridan olingan: Keigson, Varshavskiy, Nikolaevskiy)¹ rusumli televizorning ommaviy ishlab chiqarilishi yo'lgan qo'yildi.

Televizor haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, u telestudiyalardan uzatiladigan teleeshittirishlarning signallarini qabul qilishni kuchaytirish hamda tasvir va tovushga aylantirish uchun mo'ljalangan radioelektron qurilma. Birinchi televizorlar 1938-yildan ishlab chiqarila boslangan va ular oq-qora tasvirda lampali bo'lgan.

Televizorning oq-qora, rangli, statsionar va ko'chma xillari bor. Televizion markazdan tarqatilgan elektr signallari va to'lqinlarni qabul qiluvchi antenna tutib,

¹ Bakulev G.P. Televidenie bez granits – M., 1994.

kabel orqali televizorga uzatadi, bunda tebranishlar kuchayib, tasvir va tovush signallariga ajraladi, so`ngra kineskop va radiokarnayga o`tadi. Oq-qora televizorda tasvir signallari qora va yorug` elementlar ko`rinishida namoyon bo`ladi. Qabul qilinadigan dasturlar soniga qarab, televizor bir, uch, besh, o`n ikki, o`ttiz bir va hokazo kanallari bo`ladi. Televizorda qabul qilish uchun metrli to`lqinlar diapazonida ishlaydigan televizion kanallardan foydalaniadi. Detsimetrli diapazondagi dasturlarni qabul qilish uchun televizorlarga alohida moslama – konverton qo`yiladi. U detsimetrli signalni qabul qilib, chastotasini birinchi, ikkinchi yoki boshqa televizion kanal chastotasiga moslab beradi. Televizorlarning soddalashtirilgan sxemasi kanalning almashib ular bloki, tasvir va ovoz kanallari, sinxronlash kanallari, yoyuvchi blok va elektr quvvatlari bilan ta`minlovchi blokdan iborat. Telestudiylar bir necha dasturni bir vaqtida uzatadi. Ulardan keragini ko`rish uchun televizorda sozlash blokidan foydalaniadi. Bu sozlash bloki yuqori chastotali kuchaytirgich bilan tutashtirilgan bo`ladi. Tasvir va tovush signallari bir-biridan farq qiladigan chastotalarda uzatilganligi uchun bu signallar kuchaytirilganidan so`ng yuqori chastotali tebranishlar ajraladi va boshqa-boshqa mustaqil kanallar bo`yicha ketadi. Tovush signallari tebranishlari tovush blokiga tushadi. Tasvir blokida detektor yuqori chastotali tebranishlardan tasvir signallarini ajratib oladi.

Rangli televizorlarning tuzilishi ancha murakkab, ular oq-qora televizorlardan ranglar kanali bloki va rangli kineskopi bilan farq qiladi. Rangli televideniye tizimi uch kanalli bo`ladi. Monoxrom tashkil etuvchilar – qizil, ko`k va zangori ranglar rang qorgichchida aralashadi, so`ngra uzatgich modilyatoriga o`tadi. Tebranishlar qabul qilgichda qaytadan uch chastota kanaliga bo`linib, rangli kineskopga o`tadi. Sifat ko`rsatkichlari, ekranning o`lchami va foydalanishga qulayligi bo`yicha televizor to`rt sinfga bo`linadi: I – III sinfdagisi – statsionar televizorlar, IV sinfdagisi – portativ, ya`ni ko`chma televizorlar, odatda, televizorlar bosma montajdan keng foydalaniyan alohida konstruktiv bloklardan tuziladi. Yillar o`tishi bilan televizorlarda lampalar o`rniga tranzistorlar, integral platalar, mikrosxemalardan foydalana boshlandi. Vaqt o`tishi bilan ekrani tekis va

elektrlyuminiforda ishlaydigan, juda katta va mitti ekranli, plazmali televizorlar yaratila boshlandi.

1950-yilda “Zenith” firmasi injenerlari tomonidan birinchi bo’lib, ma’lum bir distansiyadan pul’t orqali boshqariladigan televizorlar yaratilgan bo’lib, bu pul’tlar hali sodda, asosan televizor kanallariga olish va ovozini balandlatish, pastlatish uchun xizmat qilgan¹.

Rangli televizorlar ustida injenerlar I.A.Adamyar, Zvorkin va boshqalar o’z eksperimentlarni olib bordilar. Shu bilan bir qatorda turli davrlarda arman O.A.Adamyan, amerikalik F.Farisuor, ingliz K.Svinton va L.Berd, rus olimi Yu.S.Volkovlarni rangli televideniye ixtirochilari deb ataymiz. Sobiq ittifoqda rangli televideniyening muntazam ko’rsatuvlari 1967 yildan boshlandi. Sun’iy yo‘ldosh orqali birinchi – ko’rsatuv esa 1965 yilda amalga oshirildi.

Birinchi rangli televizorlar CBS RX-40 AQSHning RCA kompaniyasi tomonidan 1950 yilda ishlab chiqilgan. Rossiyada esa 1954-yilda birinchi rangli televizorlar “Raduga” nomi bilan Leningradda ishlab chiqarila boshlangan. Hali rangli televizorlarning ranglarni tarqatish sifati ancha past xolda bo’lib, yillar o’tishi bilan taraqqiyot natijasida sifat ko’rsatgichlari nihoyatda yuqori darajaga ko’tarildi va hozirda televizorlar eng zamonaviy ko’rinishga ega bo’lib rivojlanib bormoqda.

1954 yil Toshkentda telemarkaz qurilishi boshlandi. 1956 yil 5 noyabrdan Toshkentda muntazam ko’rsatuvar yo’lga qo’yildi. Shu kuni 2 soatlik teleko’rsatuvar bo’lib o’tdi. Studiya dastlabki yillar 4 (ijtimoiy – siyosiy, musiqiy, adabiy – dramatik va bolalar uchun mo’ljallangan) tahririyatga ega edi. 1958 yil Toshkentdagi birinchi – ko’chma televizion stansiya o’z ishini boshladi. 1963 yil Toshkent, Olma-Ota va Bishkek studiyalari ishtirokida birinchi – o’zaro telealoqa bo’lib o’tdi. 1965 yil O’zbekistonga Moskvadan Butunitifoq televideniye ko’rsatuvarlari uzatila boshlandi. 1967 yil mart oyida O’zbekiston o’z televideniyesi ko’rsatuvarlari alohida-alohida dasturda ko’rsata boshladi. O’zbekiston televideniyesining ommaviy aloqa kanali va jamiyatning ijtimoiy institutiga

¹ Меркулов Д. Телевидению – 80 лет // Наука и жизнь журнал. – 2006. – № 1.

aylangan vaqt – 1960 yildir. Televizorlar bilan ta'minlash va teletarmoqning rivojlanish darajasi bo'yicha O'zbekiston Sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari orasida yetakchi o'rnlarda turar edi.

1980 yil Toshkentda yangi telemarkaz ishga tushirildi. Televizion ko'rsatuvlarni uzatish sifati yaxshilandi.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, hozirgi davrda butun dunyodagi deyarli barcha insonlarning maslahatgo'yi, hamkor va do'stiga aylanib ulgurgan radio, televideniya sohasi zamon talablariga monand tobora rivojlanib, mukammallahib bormoqda. Televizoringiz chiroyli ko'rsatsa, radio ovozi jozibali bo'lsa rohatlanasiz, asablaringiz dam oladi, ayniqsa, dunyodagi ajoyib tabiat manzaralari, mo'jizakor maaskanlarini raqamli televideniya orqali tomosha qilsangiz, bilimingiz, dunyoqarashingiz kengayib, dilingiz orom oladi. Bugungi kunda radio va televideniye axborot uzatish bo'yicha eng asosiy ommaviy axborot vositalaridan hisoblanadi.

1.2. Radio va televide niyening jamiyatdagi estetik funksiyalari.

Jamiyat taraqqiyotida radio va televide niyening o`ziga xos o`rni bor. O`zbekistonda ommaviy axborot vositalari orasida muhim ahamiyatga ega bo`lgan radio va televide niyening rivojlanishi natijasida radioeshittirish va teleko`rsatuvlarni rivojlantirish istiqlol yillarida amalga oshirilgan islohotlarning muhim yo`nalishlaridan biriga aylandi. So`nggi yillarda ko`rilgan qator chora-tadbirlar natijasida televide niye va radioning zamonaviy texnik bazasi yaratildi. Radioeshittirish va teleko`rsatuvlarni tayyorlash, tarqatish jarayoniga zamonaviy uskuna va mediatexnologiyalar muntazam joriy etilmoqda. Buning natijasida radioeshittirish va teleko`rsatuvlarning sifati ko`tarilib kundan-kunga yangi-yangi radiokanallar hamda telekanallar paydo bo`lmoqda.

Inson axborotning yarmidan ko`pini ko`z orqali qabul qiladi. Balki siyosiy suhbat paytida uning asosiy mazmuni quloq orqali kirar, lekin tabiiy komponentlar yo`qoladi. Siz gazeta va jurnalda intervyu o`qiganingizda, intervyu olgan kishi, haqida qandaydir tasavvurga ega bo`lasiz. Biroq, uning aytganlarini to`ppa-to`g`ri qabul qila olmaysiz, chunki u boshqacharoq ham gapirgan bo`lishi mumkin. Ikkinchidan bu shaxsning intellektual qobiliyati haqida ma'lum tasavvurga ega bo`lasiz, biroq, uning o`ziga xos jismoniy xususiyatlari yashirin bo`ladi. Radioeshittirishlar ham deyarli shunday. «Deyarli» o`rniga «Xuddi shunday» deyish mumkinamas, chunki ovoz qaysidir ma'noda insonning borligi. Bevosita tirik ovoz orqali siz inson haqida qandaydir ma'lumot olasiz: axir u yoki bu ovoz tiniqligi, jarangdorligi, intonatsiya, gapishtish usuli – bularning hammasi ma'lum kishi haqida xabar beradi. Siz so`zlovchi nutqiga e'tibor bermasdan, birgina ovozining o`zidan nafaqat uning yosh yoki qarilagini, balki uni quvnoq yoki zerikarlagini, bag`ri keng yoki baxillagini ham bilishingiz mumkin. Hamda uning odamlarga bo`lgan munosabati, samimiylilik darajasi, ma'naviy dunyosi ham ma'lum bo`ladi.

Ko`z o`ngimizdagi kishi hikoyasini aytib turib chehrasi, hissiyoti, tasurotlari bilan sizga kuchliroq ta'sir qiladi. Shu yerda psixologik mexanizm ishlay boshlaydi, olimlar uni «ishonish va ishonmaslik filtri» deb atashadi. Agar odam

chehrasi bu filtrni egallay olsa, uning nutqi ta'siri bir necha bor oshadi, bu esa har qanday dalillardan kuchliroq ishontiradi.

Shunday qilib, radioeshittirish va teleko'rsatuvning orasidagi eng muhim sharti shundaki, radio faqat eshitish qobilyatiga ta'sir qilsa, televideniyeda esa ko'rish imkoniyati ham bor.

Radiospektaklni televideniyega mexanik tarzda ko'chirish hollari faqat muvaffaqiyatsizlik bilan tugagan desak bo'ladi. Bu omadsizliklardan biri aktyorlarning tashqi ko'rinishi (ovozining sifati to'g'ri kelganda ham) ekranga tushmaydi. Biroq buni ham bir amallasa bo'lishi mumkin. Axir radiopesani televideniyeda ijro etish uchun drammaturgiya talablariga javob beruvchi boshqa aktyorlarni chaqirish mumkin. Muvaffaqiyatsizlikka asosan boshqa holatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Yaxshi radiopesa radiodramatrugiyaning o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Dramaturgiya qonunlari shuni talab qiladiki, radiopesada aytildigan so'z nafaqat personajning fikr va g'oyalarini aks ettirish kerak, balki voqeа-hodisa rivojini, vaziyatni ko'z oldiga keltirish uchun ham xizmat qilish kerak. Televideniyada bunday talab qo'yilmaydi. Chunki joy holati, ko'rinish, personajning jismoniy harakati bevosita ekranda tasvirlanadi.

Inson ko'z oldida jonli, harakatlanuvchi tasvir paydo bo'lganda, u psixologik va fiziologik sabablarga ko'ra ko'rsatuvning asosiy elementiga aylanadi, ovoz esa (nutq, musiqa, shovqin) ikkilamchi rol o'ynaydi. Radiopesa esa yagona ovoz komponentiga mo'ljallanib yaratilgan. Shunga ko'ra radiopesa dramaturgiysi ko'rish komponenti yo'qligiga mo'ljallangan.

Biz radioning tasvirlash hususiyati yo'q bo'lgani uchun televideniyega nisbatan axborot vositasi sifatida yoki badiiylik jihatidan darajasi pastligini isbotlab bermoqchi emasmiz. Avvalo radioning ham o'ziga xos xususiyati bor: uni hamma yerda, har qanday sharoitda va har qachon ishlatish mumkin. Undan tashqari, eng muhimi radio birgina ovozi bilan televideniyega nisbatan ahamiyatli tomoni bor: yakka ovozi bilan inson taassuroti, uning tasavvuriga kuchliroq ta'sir qilishi mumkin. So'z-buyuk qudrat, biroq tasvir so'zdan foydalanishni cheklab

qo‘yadi, uni boshqacha ishlatishni talab qiladi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, televide niye ko‘rish orqali odamni ancha toliqtiradi. Radio eshittirish, ayniqsa musiqiy bo‘lsa, u priyomnik oldiga butunlay berilib o‘tirishni talab qilmaydi, televide niye esa aksincha.

Televide niye dekoratsiya, grim, kostyum, rakurs, plan va boshqa muhim omillari mavjudligi bilan radioeshittirishdan farqlanadi.

Radioeshittirish bilan teleko‘rsatuv aspektida bitta narsa: efir bo‘yicha axborot uzatishda markazidan elektron magnit to‘lqinlarini bir vaqtning o‘zida million nuqtalar qabul qiladi. Radioda elektromagnitik signal faqat ovoz haqida ma'lumot yetkazsa, televide niyeda esa ovoz va tasvir haqida yetkazadi. Shu texnik sabablarga ko‘ra radio va televide niye programmasi bir xil xarakterda auditoriyaga qaratilgan va shunga ko‘ra, radioprogramma bilan teleprogramma umumi y maqsad va vazifalarga ega.

Televide niyening ijtimoiy vazifasi radioeshittirishning ijtimoiy vazifasiga mos tushsada ta’sir etish vositalari turliligi bilan bir-biridan farqlanadi. Shu xususiyati bo‘yicha auditoriyaga ta’sir etish usuli ham boshqacha.

Hozirgi kunda kundalik hayotimizni radio va televide niyesiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki radio va televide niye muhlislarini allaqachon o‘z auditoriyasiga yig‘ib olgan. Jahonda fan-texnikaning taraqqiyoti natijasida radio va televide niye sohasi ham rivojlanib, sifat darajasi o‘sib mukammallashib bormoqda.

Radio va televide niye ham sintetik san`at turi hisoblanadi. Televide niyening boshqa san`at turlaridan farqi va afzalligi uning har yerda hozirligidir. Radio voqe a-xodisa, xabarlarni yetkazish xususiyatiga ega bo‘lsa, televide niye axborotni og‘zaki yetkazish va ko‘rsatish hamda ommaviy tadbirlarni keng yoritib ko‘rsata olish imkoniyatiga ega. Televide niye xabarlarni saralaydi, izohlaydi va atrof-muhitni o‘rganishda, tushunishda qudratli qurol hisoblanadi. Televide niye voqe a-hodisalarni shu zahoti, shu onda va sodir bo‘lish vaqtida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hozirjavoblik bilan ishonarli qilib dalillalr asosida namoyish qiladi. Radio va televide niye dasturlarini tomoshabin tanlay oladi va har tomonlama qulayligi bor. Radio eshittirishlarning va televide niye ko‘rsatu vlarining yo‘nalishi, manzili aniq

va mo'ljallangan tomoshabini, muxlisi bor. Radio va televide niye orqali jamoatchilik fikri o'rganiladi, hisobga olinadi. Radio eshituvchilarning va teletomoshabinning ma'lumot darajasiga, yoshiga, vaqtiga qarab ko'rsatuvlar, radiodasturlar berib boriladi. Radioni tinglash va televide niye ko'rsatuvlarini tomosha qilish, idrok qilish ikki taraflama ya'ni, bir kishiga va millionlab kishilarga mo'ljallanadi.

Televide niyening madaniy – ma'rifiy vazifasi vazifa tomoshabinlar uchun mo'ljallangan barcha dasturlar mazmunini o'zida ifoda etadi. Biroq televide niyeda shunday dasturlar va muhim kanal borki, aynan ular teleauditoriyani fan va madaniyat yutuqlari bilan tanishtirib boradi. Bu kanalda oxirgi yillarda maorif tizimini targ'ib qilish maqsadida didaktik ruhdagi mavzular yuzaga kela boshladi. Faqat madaniy-ma'rifiy vazifasi va ma'naviy vazifalar o'rtasida xuddi maktab va klubning o'zaro farqi singari tafovutlar mavjud. Televide niye tomoshabinlarga teatr spektakllari yoki o'yin telefilmlarini to'liq oynai jahonda olib ko'rsatish orqali madaniyat boyliklarini targ'ib etadi.

Boshqa san'at turlariga qaraganda televide niye birdaniga bir necha joydan namoyish qila oladi. Televide niyeda ijrochining, suxandonning shaxsi, istarasi muhim rol o'ynaydi. Kutilmagan holatlar, hujjalilik tomoshabin ko'z oldida sodir bo'ladi. Rejissor nimani maqbul ko'rsa, tomoshabin shuni ko'radi. Shuning uchun ham televide niye yirik plan san'ati hisoblanadi. Teatr, kinoga nisbatan televizorni xonardon mezboni sifatida tomosha qila olasiz. Hozirgi kunda raqamli televide niyeni rivojlanishi bilan tasvir sifatiga katta e'tibor berilmoqda.

Televide niyeni radioga nisbatan farqli tomonlarini olib ko'radigan bo'lsak, uning o'ziga xos reproduktiv xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Radioda kameraning keragi yo'q, televide niyeda kamera orqali suxandon efirga chiqadi va kameraga qarashi shart, chunki tomoshabin bilan muloqotda bo'ladi.
2. Radioda muhlis sodir bo'layotgan voqealarning kuzatuvchisi bo'lsa, televide niyeda o'sha jarayonning ishtirokchisi, jim o'tirgan qatnashchisi hisoblanadi.

3. Radioda tinglovchilar maavjud, televideniyeda esa tomoshabin ko`lami keng, auditoriya katta va televideniye uyda, oilada sirdosh.
4. Voqelik ifodasini faqat radio va televideniyeda shu zahoti eshitasiz va tomosha qilasiz.
5. Radioga nisbatan televideniyening ta`sir qilish kuchi nihoyatda ko`p.
6. Asl haqiqat va hujjalilik faqat radio va televideniyega xos. Kundalik voqelikni shu zahoti betakror ilg`aysiz.
7. Radio va televideniyeda axborotlar ishonarli, haqiqiy, asl hujjalilik asosida aks etadi.
8. Radioda axborot eshitasiz va qo'shiq tinglaysiz, televideniyeda esa axborot, qo'shiq va boshqa ko`ngil ochar shou dasturlarni tomosha qilasiz.

Televideniye kino, teatr san`atlari ifoda vositalaridan foydalanibgina qolmay, o'z imkoniyatlarini kashf qildi. Adabiy teatr, bir aktyor teatri, tok-shou, turli-tuman muloqotlar va boshqa ko`p janrdagi ko`rsatuvarlar televideniye tufayli paydo bo`ldi. Ko`p seriyali filmlar, televizion filmlar, roman va qissalarning televizion adaptatsiyasi, epik asarlar, ko`p kamerali tasvirga olishlar televideniye tufayli ro`yobga chiqdi. Montaj texnikasi kinoga nisbatan yuksak darajada o`zgarib ketdi. Hech qanday ximikatlarsiz, jismoniy aralashuvlsiz montaj usullari paydo bo`ldi. Bular o'z navbatida televizion rejissordan muallif, aktyor va boshqa ijodiy jamoa bilan ishlashdan tashqari yangi televizion texnologiyani o'rghanishni, uning imkoniyatlaridan unumli foydalanishni vazifa qilib qo`ydi. Televizion rejissura ijodiy mahsul berishdan tashqari katta tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo`lish xislatlarini ko`rsatdi.

Shuningdek, zamonaviy televideniyeda keng tarqalgan janrlar: reportaj, teleocherk, portret, suhbat, intervyu, o'yinlar, tanlovlari, shou va kliplar ham bugungi kunda tomoshabinlarni o`ziga rom qilib rivojlanib kelmoqda. Televideniye dasturlarini o`zida ishlab chiqilgan telespektakl, telefilm, videofilmlar ham televideniye ekran san`ati sifatida, doimiy izlanishda ekanligini ko`rsatmoqda. Ko`rsatuvlarning ikki turi aniqlangan bo`lib, birinchi turiga - hujjal, voqe-hodisaviy ya`ni qandaydir voqealarni tasvirga olish kirsa, ikkinchi

badiiy televideniye deb nomlangan turiga – badiiy ijodning turli shou, telespektakl kabi turlarini kiritish mumkin.

Televizion ko`rsatuvlarning g`oyaviy-badiiy yo`nalishi, uning sifati, haqqoniyligi, hayotni to`g`ri va aniq aks ettirishida rejissor shaxsan masuldir. Teleko`rsatuvlar aloqasi bir vaqtda optikaviy va tovushli xabarlarni uzatish uchun mo`ljallangan, shuning uchun televideniya aloqasida ikkita kichik tizim mavjud bo`ladi. Tovush xabarlarini uzatuvchi kichik tizim, amalda yuqorida ko`rilgan ovoz eshittirishdan farq qilmaydi. Optikaviy xabarlarni uzatuvchi kichik tizim esa harakatdagi tasvirlarni uzatishni ta`minlaydi. U ham boshqa elektr aloqa tizimlari kabi uchta asosiy elementdan tashkil topgan: uzatgich, aloqa kanali va qabul qilgich. Harakat effekti kinodagidek kadrlarni tezlik bilan harakatlantirish hisobiga erishiladi (bir sekundda 24 kadrdan ortiq). Bu hodisa inson ko`zining inertligi hisobiga. Demak, harakatdagi tasvirlarning harakatda bo`lmaganlarga qaraganda ancha katta tezlikda yoyilishini amalga oshirish zarur. Shuning uchun harakatdagi tasvirlarni signalga va teskari o`zgartirish uchun elektronli yoyilishdan foydalilaniladi. Bunda o`zgartirgichlarning asosiy elementi kineskop hisoblanadi.

Televideniya signallari, odatda, radiokanal bo`yicha uzatiladi. Radiokanal tarkibiga televideniya radiouzatgichi (RU), uzatuvchi antenna, radio to`lqinlar tarqaluvchi muhit, qabul qiluvchi antena va televizorli qabul qilgichlar (K+) kiradi. Ko`rinuvchi signalning chastotali spektri past bo`lganidan ochiq fazo bo`yicha tarqatish radio chastotali signalga aylantirib, radio to`lqin sifatida uzatish televideniya radio uzatgichida amalga oshiriladi. Tizimning qabul qiluvchi tomonida radio to`lqinlarining bir qism energiyasi qabul qiluvchi antena tomonidan ushlab qolinadi, kuchaytiriladi va yana kineskop radio qabul qilgichida ko`rinuvchi signalga o`zgartiriladi. Ko`rinuvchi signalni xabarga aylantirishda ba`zi bir moddalarning elektronlar ta`sirida nurlanishidan foydalilaniladi. Ularga lyuminaforlar deyiladi. Ular nurlanishning yoritilganligi tushayotgan elektronlar oqimiga to`qri mutanosib. Lyuminafor kineskop ichki qismiga surtilgan elektron dastasining intensivligini ko`rinuvchi signal boshqaradi. Signal o`zgarishiga qarab nur dastasining intensivligi o`zgarganidan, har bir qatordagи nurlanish o`zgaradi.

Elektron - fotonning katta tezlik bilan (1 sekundda 625 marta) o‘zgarishidan biz televizor ekranda to‘la optikaviy tasvirni ko‘ramiz. Yorug‘lik intensivligidagi o‘zgarishlarni istalgan masofaga uzatishning eng oson yo‘li yoritilganlikka mutanosib elektr toki beradigan biror fotoelementdan foydalanishdir. Fotoelement bergen tok kuchaytirilganidan so‘ng sim yoki radio vositasida uzatish mumkin. Agar bu tok ravshanligi tok yoki kuchlanish kattaligiga bog‘liq bo‘lgan manbaiga berilsa, qabul qilish stansiyasida yoruqlikning uzatilgan intensivliklarini tiklash mumkin. Manzaraning ko‘p elementlari intensivliklarini bir yo‘la uzatish televidenyada asosiy qiyinchilik hisoblanadi. Bu qiyinchiliklardan qutilishning birdan-bir yo‘li elektr maydonidan foydalanishdir.

Teleko‘rsatuv (tele-grekcha, uzoq ma’nosiga ega) asosida turli-tuman tinch turgan va harakatdagi rasmlar, chizmalar, binolar, sahnadagi artistlar hamda voqeа va hodisalarni elektr maydoni yordamida uzoq masofalarga uzatish yotadi. Birinchi marta Berd (1925 yil) teleko‘rsatuv uchun shunday tizimni taklif qildiki, uning asosida matnlarning ko‘plab bo‘lakchalaridan hosil bo‘lgan suratlarini optika qonunlaridan foydalanib uzatish yotadi. Predmetning alohida elementidan uzatish uchun kerak bo‘ladigan vaqt juda kichik bo‘lgani uchun televidenyada ultra qisqa to‘lqinlar ishlatiladi. Bu sohada eng murakkab masalalardan biri radio to‘lqinlar yordamida tasvir elementlarini uzoq masofalarga, iloji boricha, tez va ketma-ket uzatishdir. Bu murakkab masalalar yoyuvchi qurilmalar yordamida amalga oshiriladi.

Barcha ommaviy aloqa vositalari, avvalo, televideniye o‘z tabiatiga yarasha jamiyatdagi me'yoriy holatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘z ta'sir doirasini kengaytirishga intildi. Kishilarning turli programmalarni muntazam ko‘rib borish fakti ularning muayyan birlklari haqida guvohlik beradi, lekin, efirga olib chiquvchi ish jarayonida barchaga alohida e'tiborni his qilgan holda ishlamoq shart. Ko‘rsatuvning vazifasi auditoriyaga barcha qimmatli (umuminsoniy, umumxalq va hokazo) qimmatli ma'lumotlarni ochiq ko‘rsatish, jamiyatga xavf tug‘diruvchi qarama-qarshiliklarni, barcha muammolarni hal qilish yo‘llarini muhokama qilishidadir.

Ko'rsatuvning efirga uzatilishida qancha keng ko'lamda va rang-barang ma'lumot berilsa, shuncha programmalarga bo'lgan e'tibor kuchayadi, ya'ni auditorianing hech biri chetda qolmasligi uchun ahamiyat beriladi. Milliy va diniy xususiyatlardan tashqari odamlarning ijtimoiy-psixologik, yoshidagi tafovutlarga qarab ijtimoiylikka e'tibor beradilar. Bundan tashqari televizion kanallar har bir tomoshabinning dunyodagi barcha yangiliklardan xabardor bo'lishdek ehtiyojlarni, ularning muayyan guruhini, aniq qiziqishlarini hisobga olgan holda qondirishadi. Integrativ vazifa efirga uzatiladigan televizion publitsistik, sport, san'at, ko'ngil ochar ko'rsatuvlarda o'z ifodasini topmoqda. U go'yo televideniying boshqa (axborot, madaniy-ma'rifiy, tashkilotchilik, ma'naviy va hokazolar) vazifalarini o'ziga umumlashtirib, qamrab oladi. Jurnalist uchun televideniying integrativ vazifasini ta'min etishda, avvalo lozim belgi sifatida mavzuga, televizor oldidagi har bir insonga g'amxo'rlik tariqasida jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda yondashish talab qilinadi.

O'zbekiston televideniyesi dasturida yaxlit madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvlar dastlab «Bo'ston», «Olamga sayohat», «Ma'rifat», «Vatanni sevmoq iymondandir» kabilar madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvlar sifatida O'zbekiston televideniyesi jurnalistlari tomonidan tayyorlangan bo'lsa, chet el telekompaniyalarida ishlab chiqarilgan «Kusto komandasining suvosti sarguzashtlari» (Fransiya), «Uchinchi sayyora» (Avstraliya), «2000 yildan so'ng» (Avstraliya), «Jilovlanmagan Afrika» (Xalqaro geografik jamiyat) telefilmlari tarjima qilinib namoyish qilingan.

Televideniying ijtimoiy-pedagogik vazifasini boshqacha qilib aytganda, boshqaruvchi vazifa desa ham bo'ladi. Chunki televideniying aholiga ta'siri siyosiy va ma'naviy qadriyatlarning targ'ibi bilan birgalikda amalga oshadi. Uning darajasi esa har bir davlatning xarakteri, targ'ibot va ta'sir ko'rsatish uslubiga bog'liq. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning ma'lum sohadagi siyosatining televideniye targ'ibotchisi hisoblanadi. Totalitar rejimda esa targ'ibot barcha teleko'rsatuvlarni qamrab oladi. Informatsion ko'rsatuvlardan boshlab san'at va ko'ngil ochar ko'rsatuvlargacha insonlarni davlatga bo'lgan xayrihoxligini targ'ib qilib, uning barcha qarorlarini ijro etishga chaqiradi.

Lekin, eng rivojlaigan mamlakatlarda ham televide niye davlat siyosatini amalga oshiruvchi vosita hisoblanadi. Shu o'rinda Britaniya eshittiruvlar korporatsiyasining shiorini eslab o'tish kerak: «Xabar qilish», «O'rgatish», «Ko'ngil ochish», «Sivilizatsiyalashgan jamiyatda o'rganish» prinsipi, davlatning siyosati, qarashlarning mavjud holati haqidagi jamiyat fikrini shakllantiruvchi yo'nali shdir. Agar siyosat jamiyat ravnaqiga qaratilgan bo'lsa, sharhlovchi hech qanday konfliktlarga bormay, g'oyalar targ'ibini o'zining shaxsiy ehtiyojini va qarashlaridan kelib chiqib bajarish mumkin. Lekin keyinchalik, davlatning siyosiy yo'nali shlari yoki boshqaruv apparatidagi o'zgarishlardan so'ng bu jurnalistning auditoriyaga ta'siri yo'qoladi. U hamma oldida «nima bersa, shuni o'qiydigan» shaxsga aylanadi.

Televideniying ijtimoiy-pedagogik yoki boshqaruv vazifasi integrativ va informatsion yo'nali shlar bilan chegaralanib qoladi. Informatsiya-boshqaruv asbobi haqidagi tushuncha jurnalistikaga kibernetika fanidan kirib kelgan. Informator informatsiya borasida auditoriyaga «nima berish yoki berilmaslikni» hal qilmasligi kerak. Chunki u amalda auditoriya manfaatini emas, balki boshqaruvchilar ning manfaatini ko'zlaydi. Shuning uchun informatsiya uni uzatayotgan odamlarga bog'liq bo'lmasligi hamda ob'ektiv bo'lishi kerak. Amalda bunga erishib bo'lmaydi, lekin jurnalist baribir bunga harakat qiladi. Natijada informatsion ko'rsatuвлar bunday targ'ibot-tashviqot prinsiplaridan yiroqda. Shuning uchun Bi-bi-si shiorining birinchi qismi - «Xabar qilish», uning ikkinchi qismi - «O'rgatish» dan xuddi dalil va sharhlash kabi farq qiladi. Fakt – bu o'zgartirib bo'lmas hodisa, sharhlash esa erkin talqin qilingan fikr.

Aholining o'zgarib borayotgan hayotga va olamga moslashtirib borish bu asosiy ijtimoiy-pedagogik vazifadir. Bu sohada ish olib boruvchi jurnalist birinchidan ishontirmoqchi bo'lgan aholining real psixologiyasini, ularning qadriyatlari haqidagi tessavvurga ega bo'lishi lozim. Ikkinchidan, ijtimoiy fikrni o'zgartirishga qaratilgan yo'nali shni aniq anglab yetishi lozim. Muhimi shuki, jurnalist targ'ibot chog'ida g'oyalarni hech qachon «bizniki» va «begona» larga

bo‘lishi mumkin emas. Chunki bu yerda uning ijtimoiy-pedagogik va birlashtiruvchi vazifalari talabi darajasida yondashish zarur.

Ma'lumki, hududiy televide niye umum davlat televide niyesidan ko‘ra o‘z auditoriyasiga ta’sir qilishi kuchliroqdir. Bu yerda mahalliy masalalar o‘z yechimini aniq topadi. Jurnalist bunday ko‘rsatuvlarda hukumat va xalq orasidagi eng muhim va ko‘zga ko‘ringan vositachidir. U mansab dorlar oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi, shu bilan birga xalq nomidan murojaat qila olmaydi. Konkurensiya sharoitida bunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatuv reytingi bo‘yicha ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarga yutqazish mumkin emas. Jamiat ertami kechmi bu kabi ko‘rsatuvlarga rejissor va jurnalistning mahoratiga baho beradi.

Televide niye rejissorining diqqat-e’tiborida inson, uning kechin malari, shaxsiyati, ichki dunyosi, maqsad va intilishlari har tomonlama nazarda bo‘lishi kerak. Rejissorning butun fikru-zikri, ijodiy izlanishlari insonni o‘rganishga, ekran oldidagi shaxs tadqiqotiga qaratilishi kerak. Televide niye umumiyl, cheksiz planlarni uncha yoqtirmaydi, uning ko‘lami, tasiri o‘zgacha. Jonli efir paytida butun ijodiy jarayon sardori rejissor hisoblanadi. Pultda uning yonida rejissor asisenti, qator texnik muxandislari, orqasida ovoz sozlovchi rejissorlar, studiyada yordamchi rejissor, tasvirchilar, chiroqchilar va ko‘p sonli ishtirokchilar, qarshidagi qator monitorlarda kameralardan kelayotgan sakkiz-o‘nta tasvirlar, ularni saralash, keraklisini tomoshabinga uzatish masuliyati rejissordan keng ko‘lamdagagi idrokni, hozirjavoblikni, aqliy safarbarlikni talab qiladi. Tomoshabin e’tiboriga havola etilayotgan badiiy, publitsistik ko‘rsatuvlar, hujatli mavzularga asoslangan chiqishlar, tomoshalar televizion dasturlarning 70-80 foizini tashkil qilib, insonlarning ma’naviy kamol topishida, uning tarbiyasida katta ahamiyat kasb etmoqda. “Qishloq hayoti”, “Hayot va qonun”, “Tahlilnoma”, “Telemuloqot”, “Yuzma-yuz”, “Muvozanat”, “Munosabat”, “Tafsilot”, “Himmat”, “Telemuloqot”, “Gap chiqdi”, “Yaxshilik” va boshqa ko‘pgina ko‘rsatuvlar teledasturlarda mustahkam o‘rin olib tomoshabinga namoyish qilinmoqda. Shu o‘rinda ko‘rsatuvlarning tayyorlanishi, efirga uzatilishi, sifati professional darajasi,

jurnalistika va rejissura ijodi qay yo'sinda kechayapti, televideniyening qonun va qoidalariiga qaysi darajada javob beryapti degan savollar tug'iladi, muammolari o'rtaga tashlanyapti. Badiiy ijodning o'z qonun qoidalari, sir-asrорлари bo'lganidek televizion publisistik ko'rsatuvlarida ham dramaturgiyani qonun-qoidalariiga, kompozitsion tuzilishiga, janriga, tiliga e'tibor berish, shu asosda sayqal berish telerejissor faoliyatiga bog'liqdir.

Televizion ko'rsatuvlarning ta'sirchanligini aniqlashda quyidagi baho mezonlariga alohida e'tibor berish kerak:

I. Ko'rsatuvdan maqsad:

1. Ko'rsatuvga, uning har bir lavhasiga jamoatchilik e'tiborini tortish;
2. Jamoatchilik fikrini uyg'otish;
3. Tomoshabinning ijtimoiy faolligini oshirish;
4. Jamoatchilik ongini shakllantirish;
5. Xabar berish;
6. Tarbiyalash va o'rgatish
7. Ma`naviyat va ma'rifatni targ`ib qilish;
8. Tashkil qilish

II. Ko'rsatuv mavzusini yoritishda inobatga olinadigan holatlar:

1. Voqealarni yoritishda xolislik;
2. Muallifning to'g'ri va adolatli nuqtai nazari;
3. Muallifning voqeaga shaxsiy munosabati;
4. Muallifning malakaviy loyiqligi va hozirjavobligi;
5. Mavzuga yangicha yondashuv;
6. Mavzuni chuqur tadqiq qilish;
7. Mavzuning dolzarbliji va beriladigan axborotning ko'pligi.

III. Ko'rsatuv shakli:

1. Ko'rsatuvni tayyorlashda dramaturgiyaning qonun-qoidalariiga amal qilib tashkil qilish;
2. Badiiy obrazning borligi va boshqa holatlarning yoritilishi;

3. Televideniying o`ziga xos xususiyatlari va ifodali vositalaridan unumli foydalanish.

IV.Ko`rsatuvning ta`sirchanligini oshirishda kerakli bo`lgan qo`shimcha omillar:

1. Ko`rsatuv yo`nalgan tomoshabin auditoriyasini bilish;
2. Boshlovchining shaxsi va ruhiy holati;
3. Ko`rsatuvda mazmun va shakl birligiga e`tabor berish;
4. Ko`rsatuv mavzuda ko`tarilgan fikrlarning raxonligi, ommabopligi.

Zamonaviy televideniyyeda keng tarqalgan janrlar reportaj, teleocherk, portret, suhbat, intervyu, o`yinlar, turli hil tanlovlар, shou va kliplar bugungi kunda nihoyat darajada kengayib rivojlanib bormoqda. Ayniqsa keyingi paytlarda televide niye o`zida ishlab chiqilgan telespektakl, telefilm, videofilmlar ham turli shakldagi xilma-xil tomosabinni o`ziga qiziqtirgan muammolarni ko`tarib chiqib, jonli tarzda tasvirlab bermoqda.

Xulosa qilinadigan bo`lsa, bugungi kunda radio, televide niye son jihatdan beqiyos darajada o`sdi va sifat jihatdan sezilarli o`zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, “uyali” telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo`jizalar radio va televide niye rivojiga katta ta'sir ko`rsatmoqda. Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – mediadan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo`nalishlaridan keng foydalanish yo`lga qo`yilmoqda.

II.Bob. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida milliy teleradioning o'rni va roli.

2.1. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda milliy televide niye va radio sohasida amalga oshirilgan islohotlar

XX asr mo'jizasi, televide niye va radioning hayotimizda tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bugun kundalik hayotimizni televide niye va radiosiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrining teleko'rsatu vlar vatani ekanidan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Dunyodagi ilk oq-qora tasvirli elektron televide niye tizimi loyihasi ham 1925-yilda aynan Toshkent shahrida ishlab chiqilgan bo'lib, shu yili dunyo miqyosida muhim ahamiyatga ega ushbu kashfiyot uchun patent olingan. 1928-yilda televizion tajriba qurilmasida harakatlanuvchi oddiy ob'ektlar namoyish etildi. 1956-yilda esa Markaziy Osiyo mintaqasida birinchilardan bo'lib Toshkentda oq-qora tasvirli televizion markaz ishga tushirildi. Shundan buyon o'tgan yarim asrdan ko'proq vaqt mobaynida televide niye sifat jihatidan jiddiy yuksalishga erishdi. Tasvir va tovush tiniqlashtirilgan zamonaviy televizorlarning paydo bo'lgani hamda telesignal larni uzatish usullarining takomillashgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Odatdagi televizion ko'rsatu vlardan yangi, yanada sifatli daraja – raqamli teleko'rsatu vlar ni yerdan turib efirga uzatishga o'tilgani televide niye sohasida ulkan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Raqamli televide niyenning odatdagi televide niyedan asosiy farqi shundaki, unda tasvir va tovush g'oyat tiniq, ranglar yorqin va har bir detal aniq aks etadi.

O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib raqamli televide niyega o'tgan va respublikamizda raqamli televide niyeni joriy etish 2007-yildan boshlangan edi. Toshkent va Buxoroda yerdagi raqamli televide niye tajriba zonasining tashkil etilishi yangi turdag'i ko'rsatu vlar ga bosqichma-bosqich o'tishni boshlab berdi.

2008-yilning sentyabrida "RRTM" DUK da Toshkent va Buxoro shaharlarida raqamli televide niye uskunalarini sinovdan o'tkazish ishlari tashkillashtirildi. 2009-yil oktyabr oyidan boshlab, Toshkent va Buxoro

shaharlarida “O’zbekiston”, “Yoshlar”, “Toshkent”, “Sport” kabi to’rtda davlat dasturlaridan jamlangan dasturiy paketini translyasiyasi bo’yicha aholiga raqamli televide niya xizmatlarini ko’rsatish boshlandi. 2010-yil 16-iyunda Toshkent shahrida DVB-T standartidagi raqamli televide niye orqali tarnslyasiya qilinadigan teledasturlarning soni 25 tagacha yetkazildi, 2010-yil 18-dekabrda esa bu ko’rsatgich 36 ta teledasturga ko’paydi. 2010-yil sentyabridan boshlab Samarqand shahrida ham raqamli televide niya uskunalarini sinovdan o’tkazish ishlari tashkillashtirildi Hukumatning “2010 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilda rivojlanishning asosiy yo’nalishlariga bag’ishlangan” 2011-yil 21-yanvadagi majlisida, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o’zining nutqida, O’zbekiston hamdo’stlik davlatlari ichida birinchi bo’lib, 2015-yilda tugatilishi rejalashtirilgan raqamli va kengformatli televide niyega to’liq o’tish dasturi amalga oshirilayotganligini ta’kidlab o’tdi. 2011-yil yanvar oyida “Nukus RTSga raqamli teleuzatgichni yetkazish va o’rnatish” loyihasi bo’yicha raqamli teleuzatgich jamlanmasi olindi va Nukus shahriga yetkazildi. “RRTM” DUK mutaxassislari tomonidan “Rode Shvars” kompaniyasida ishlab chiqarilgan ushbu raqamli teleuzatgich o’rnatildi. 2011-yil mart-aprel oylarida Urgench va Nukus RTSlari uchun 2 kvt quvvatli raqamli teleuzatgich va “Katrav” kompaniyasida ishlab chiqarilgan zarur antenno-fider moslamalari olindi. 2011-yil 26-aprelda Urgench RTSda raqamli teleuzatgichlarni test rejimidagi ekspluatatsiyasi boshlandi, 2011-yil 30-aprelda esa Nukus RTSda boshlandi. Ayni paytda bu radiotelevizion stansiyalari ochiq formatda 12 ta teledasturlarni raqamli formatdagi translyasiyasini amalga oshirmoqdalar. 2011-yil iyul-avgust oylarida Andijon va Odamtosh RTSlariga “Inverson Technoloqies SA” kompaniyasi bilan tuzilgan shartnoma bo’yicha “NEC” kompaniyasining ikkita yangi raqamli teleuzatgichlari olib kelindi va o’rnatildi. Bu ikkita teleuzatgichlar 2011-yil 24-avgust kuni test rejimida ekspluatatsiyaga tushirildi. Ayni paytda bu radiotelevizion stansiyalari ochiq formatda 12 ta teledasturlarni raqamli formatdagi translyasiyasini amalga oshirmoqdalar. 2011-yil 29-noyabr kuni tantanali ravishda MDH davlatlari ichida

birinchi bo`lib “Uz.HD” (yuqori sifatli televideniya) formatida telekanallarni yer ustki uzatish ekspluatatsiyasi ishga tushirildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 20-avgustdagagi PQ 1394-sonli “O`zbekiston Respublikasida raqamli teleradioeshittirishga o`tish masalalari bo`yicha Muassasalararo ishchi guruh tuzish haqida”gi Qaroriga muvofiq, shuningdek radiochastota spektoridan foydalanishni samarasini oshirish va raqamli formatdagi teleeshittirishga bosqichma-bosqich o`tish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 17-apreldagi PQ-1741-son “O`zbekiston Respublikasida raqamli teleeshittirishga o`tishning texnik va texnologik Davlat dasturi haqida”gi Qarori¹ qabul qilindi. Ushbu Qaror bilan O`zbekiston Respublikasida raqamli teleeshittirishga o`tishning texnik va texnologik Davlat dasturi tasdiqlangan bo`lib, bu dastur: raqamli teleeshittirish borasidagi huquqiy-me`yoriy bazani takomillashtirishni, 2017-yil oxirigacha aholiga raqamli teleko`rsatuv xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadigan raqamli teleeshittirishga respublikada ikki bosqich bilan o`tishni (2012-2015-yillar 1-bosqich, 2016-2017-yillar 2-bosqich), analog teleeshittirishlarni bosqichma-bosqich raqamli eshittirishga o`tkazish orqali yer ustki raqamli televizion eshittirishlarni modernizatsiya qilish va kelgusida yanada rivojlantirishni, yangi xizmat turlarini, shuningdek interfaol va mobil teleuzatishni tadbiq etishni, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholini raqamli teleeshittirish signallarini qabul qiluvchi zamonaviy uskunalar bilan ta`minlash va hokazolarni nazarda tutadi.

Toshkent shahri, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Andijon, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog`iston Respublikasida o`rnatilgan raqamli uzatgichlar qatorida 2012-yil Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Farg`ona viloyatlarida ham raqamli televizion uzatgichlar o`rnatilib ekspluatatsiyasi yo`lga qo`yildi. Shu bilan O`zbekiston Respublikasi aholisining 42 % sifatli raqamli signal bilan ta`minlandi.

¹ O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 2012-yil 17-apreldagi “O`zbekiston Respublikasida raqamli televideniyega texnik va texnologik o`tishga doir Davlat dasturi to`g`risida” gi qarori // <http://www.kun.uz/>

2013-yilda mamlakatimiz hududida raqamli teleeshittirishni qamrov doirasini kengaytirish va rivojlantirish ishlari davom ettirildi. Toshkent viloyatidagi Angren RTS va Bekobod RTSlarida, Farg`ona viloyatida So`x RTSda, Xorazm viloyatida Pitnak RTSda va Jizzax viloyatida Qo`ytosh RTSlarida raqamli teleuzatgichlarning kompleksi ishga tushirilishi natijasida O`zbekiston Respublikasida aholini raqamli teleeshittirish bilan ta`minlanishini qamrov doirasi 45 % ga yetdi. Bundan tashqari, birinchi marotaba Toshkent shahrida DVB-T2 yangi formatdagi raqamli teleeshittirish tajriba zonasi tashkil etildi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq O`zbekiston Respublikasi aholisini 45 %ni qamragan 12 kanalli ijtimoiy raqamli teledasturlar paketiga “Madaniyat va ma`rifat”, “Dunyo bo `lab”, “Bolajon”, “Kinoteatr”, “Oilaviy”, “Diyor” va “Navo” davlat teledasturlari kiritildi va tarqatilmoqda. Endilikda ushbu ijtimoiy raqamli teledasturlar paketi quyidagi davlat dasturlaridan iborat: “O`zbekiston”, “Yoshlar”, “Sport”, “Toshkent”, “Dunyo bo`ylab”, “Madaniyat va ma`rifat”, “Bolajon”, “Kinoteatr”, “Navo”, “Oilaviy”, “Diyor” va “UZ-HD SD format”.

O`zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsion texnologiyalar davlat qo`mitasining “Viloyatlar televizion dasturlarini ijtimoiy raqamli teleko`rsatuvarlar paketi tarkibiga kiritish haqida”gi farmoyishida berilgan topshiriqlarni amalga oshirish borasida ayni paytda raqamli televizion uzatkichlar o`rnatilgan va ekspluatatsiyaga qo`yilan quyidagi viloyatlarning dasturlari kiritilgan: Xorazm viloyati TRK (Teleradioko`rsatuvarlari); Qoraqalpog`iston TRK; Buxoro viloyati TRK; Navoiy viloyati TRK; Qashqadaryo viloyati TRK; Buxoro viloyati TRK; Surxondaryo viloyati TRK; Samarqand viloyati TRK; Jizzax viloyati TRK; Andijon viloyati TRK; Namangan viloyati TRK va Farg`ona viloyati TRKlari.

Respublikada raqamli teleeshittirishlarni joriy etish ishlarini davom ettirish maqsadida, 2013-yil 18-noyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasining 2014-yilga mo`ljallangan Investitsiya dasturlari haqida”gi Qarori qabul qilingan. Mazkur Qarorga muvofiq 2014-yilda 2,5 mln

AQSh dollariga teng bo`lgan mablag`lar hisobiga Namangan viloyatidagi Nurabad RTS, Farg`ona viloyatidagi Farg`ona RTS va Surxondaryo viloyatidagi Uchqizil RTSlarda raqamli televizion uzatgichlar o`rnatilish va ekspluatatsiyaga kiritish natijasida O`zbekiston Respublikasi aholisining 50 % ni sifatli raqamli signal bilan ta`minlash rejalashtirilgan.

Raqamli signallarni uzatish MPEG-4 formatida amalga oshiriladi. Raqamli teleeshittirishlar bo`yicha pullik xizmatlar ko`rsatish “RRTM” DUK ta`sischiligidagi “UZDIGITAL TV” mas`uliyati cheklangan jamiyat orqali amalga oshirilishi tashkillashtirilgan. 2010-yil 21-iyunda “UZDIGITAL TV” MChJ teleko`rsatuvlarni tarqatish uchun litsenziya olgan bo`lib, hozirda abonentlarni pullik raqamli teleeshittirish tizimiga ulashni amalga oshirmoqda. “UZDIGITAL TV” MChJ xizmatlariga ularish bo`yicha bat afsil ma`lumotlarni www.uzdtv.uz rasmiy saytidan olish mumkin.

Bugun televide niye va radio ommaviy axborot vositalari ichida gazeta, jurnal va boshqa axborot turlariga nisbatan juda katta mavqega ega. Televide niye va radio juda qisqa fursat ichida texnik imkoniyatlari jihatidan, ijodiy izlanishlar ko`lami jihatidan juda keng, ommaviy, tezkor, jonli san`at vositasi ekanligini namoyish etdi. Televide niye va radio hayot muammolari yechimini topishda, xalq dardini oshkora etishda, inson qalbi va tafakkurining kamol topishida yangidan-yangi uslub ifoda vositalarini o`zida kashf etdi. Ming yillardan beri o`z funksiyalarini bajarib kelayotgan teatr san`atini, uning imkoniyat darajasini yanada kengaytirgan kino san`atini televide niye va radio o`zida mujassamlashtirgan holda davom ettirdi. Insoniyat tafakkurining rivojiga ijtimoiy hayotimizning taraqqiyoti darajasiga, turmush tarzimizga inqilob bo`lib kirdi. Bu siyosiy, ham mafkuraviy, ham texnik, ham ijtimoiy, ham informatsion-elektron inqilob edi. Tafakkurda inqilob bo`ldi. Televide niye va radio san`ati ishlab chiqarishning, harbiy va aloqa sohalariga, qishloq xo`jaligi va tibbiyot, ilmiy tekshirish va maorif, ma`naviy va maishiy hayot tarzimizga informatsion texnologiyani olib kirdi. Elektron va kompyuter kundalik hayotimizning uzviy bir dasturiga aylandi. Inson unga chambarchas bog`landi. O`z navbatida elektron texnologiya yangi-yangi qirralarni

namoyish qilmoqda. Televideeniye va radio o`zining reproduktiv funksiyalarini ochmoqda. Biz uni ilg`ashimiz, o`rganishimiz, faoliyatimizda dasturilamal qilishimiz zarur. Bu sohani o`rganishda qator mavzular, elektron inqilobning o`ziga xos tarixi, reproduktiv funksiyalarning boshqa san`at turlariga nisbatan tafovuti mavjud. Bu soha ham o`z navbatida rejissuraga bo`lgan talabni yanada kuchaytirdi.

Ko`p seriyali filmlar, televizion filmlar, roman va qissalarning televizion adaptatsiyasi, epik asarlar, ko`p kamerali tasvirga olishlar televideeniye tufayli ro`yobga chiqdi. Montaj texnikasi kinoga nisbatan yuksak darajada o`zgarib ketdi. Hech qanday ximikatlarsiz, jismoniy aralashuvhsiz montaj usullari paydo bo`ldi. Bular o`z navbatida televizion rejissordan muallif, aktyor va boshqa ijodiy jamoa bilan ishslashdan tashqari yangi televizion texnologiyani o`rganishni, uning imkoniyatlaridan unumli foydalanishni vazifa qilib qo`ydi. Televizion rejissura ijodiy mahsul berishdan tashqari katta tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo`lish xislatlarini ko`rsatdi.

Yuqori sifatli televideeniye (inglizcha Hiqh-Definition, qisqacha HDTV) – bu yuqori sifatli televizion uzatish standartlarini majmuasi, zamonaviy standartlarda eng asosiysi foydalanadigan rang va ovozni zamonaviy raqamli standartlar bo`yicha kodlanadigan yuqori sifatli tasvirni joylanishi. Bundan tashqari, yuqori sifatli televideeniyyeda tasvir va ovozni uzatishda video va ovoz ko`rsatgichlarini ixchamlashtirilgan to`lqingga asoslangan raqamli texnologiyalardan foydalilanadi. Oxirgi yillarda qabul qilingan standartlar natijasida O`zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida teleradiouzatishning mustahkam, zamonaviy ishlab chiqarish-texnologik bazasi yaratildi. Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo`llagan holda teleradiodasturlarni tarqatishni qabul qilish va uzatish tizimini rekonstruksiyasi amalga oshirildi. Ishlab chiqarish va teleradiodasturlarini shakllantirish jarayonida zamonaviy raqamli uskunalar va mediatexnologiyalar qo`llanilmoqda. Yuqori sifatli teledasturlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarni beradigan zamonaviy raqamli texnika va texnologiyalari bilan jihozlangan O`zbekiston MTRK Mediamarkazini qurilishi yakunlandi.

HD formatidagi “Uz/HD” telekanali O’zbekiston MTRK Mediamarkazi imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish maqsadida tashkil etilgan. “Uz/HD” telekanalining efiri O’zbekiston MTRK “O’zbekteofilm” DUK va mustaqil telekanallar tomonidan yaratilgan O’zbekistonning tabiiy va tarixiy obidalari, san`ati, tarixi, madaniyatining barcha tarmoqlarini targ’ib etuvchi hujjatli, ilmiy-ommabop, sohaviy ko’rsatuvlardan iborat bo’lgan eng yaxshi dasturlar bilan to’ldiriladi. Bu kanaldagi teleuzatuvarlар sutka davomida amalga oshiriladi. Teleuzatuvarlар tartibi har hil sinfdagi tamoshabinlarning (yoshi, millati va ijtimoiy kelib chiqishi) manfaatlaridan kelib chiqqan holda tashkillashtiriladi.

Mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalash, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirishda mustaqil ommaviy axborot vositalarini, eng avvalo, alohida ahamiyatga ega bo’lgan teleradioeshittirish faoliyatini rivojlantirish O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Bugungi kunda teleradioeshittirish sohasida 50 ta telestudiya, 13 ta radiostansiya, 36 ta kabelli televideniye studiyalaridan iborat davlat va nodavlat elektron ommaviy axborot vositalarini o’ziga qamrab faoliyat olib bormoqda.

O’zbekiston teleradiokompaniyasi respublikadagi teleradioeshittirish tizimining eng yirik sub'yekti bo‘lib, unda hozir olti mingga yaqin jurnalist, boshqa ijodiy va texnik xodimlar mehnat qilmoqda. Kompaniya o‘z ko’rsatuv va eshittirishlarini to’rtta tele va to’rtta radiokanal orqali respublika hududining 98 foiziga tarqatadi, ko’rsatuv va eshittirishlarning o‘rtacha bir kunlik hajmi 54 va 93,2 soatni tashkil etadi. Keyingi yillarda ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida teleradioeshittirish tizimi mukammal va zamonaviy ishlab chiqarish-texnika bazasiga ega bo’ldi. Eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda teleradio dasturlarini tarqatish tarmog‘ining qabul qilish-uzatish tizimlarini rekonstruksiya qilish ishlari nihoyasiga yetkazilmoqda. Teleradio ko’rsatuvlari va eshittirishlarini ishlab chiqarish hamda shakllantirish jarayoniga zamonaviy raqamli uskunalar va mediatexnologiyalar tadbiq etilmoqda. Shu bilan

birga O‘zbekiston teleradiokompaniyasining faoliyatini hali zamonaviy talab va andozalarga to‘la javob beradi, deb bo‘lmaydi.

O‘zbekiston teleradiokompaniyasini boshqarishning mavjud tizimi, boshqaruvin tuzilmalaridagi bir-birini takrorlash va parallelizm, teleradiokanallarning huquqiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil emasligi teleradio industriya bozorini rivojlantirishga, g‘oya va dasturlarning ijobiliy raqobatiga to‘siq bo‘lmoqda. Moliyalashtirish tizimining markazlashtirilgani, teleradioeshittirish sohasi mutaxassislarining ijodiy va texnik xizmatlariga yangi dastur va loyihalarni amalga oshirishga jamoalar qo‘sghan aniq hissasini hisobga olmay turib, haq to‘lanayotgani O‘zbekiston teleradiokompaniyasi jurnalistlari va boshqa xodimlarining yuqori unum bilan, ijodiy tashabbus va faollik ko‘rsatib mehnat qilishiga yo‘l bermayapti.

O‘zbekiston teleradiokompaniyasi, avvalo, uning hududiy bo‘linmalari ko‘rsatuv hamda eshittirishlarining professional darjasini, g‘oyaviy-badiiy saviyasi va sifati hamon pastligicha qolmoqda. Bunga sabab joylarda professional darajadagi mutahassislarini yetishmasligi yoki mavjud shart-sharoitlar teleradiojurnalistlarning mamlakatda va jahonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o‘z vaqtida, tezkorlik bilan e’tibor qaratish borasidagi faoliyatning sustligi bilan bog’liqdir.

Mustaqil teleradio kanallarini yanada rivojlantirish va isloh qilish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, aholi hamda jamiyatning har tomonlama va xolis axborotga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini qondirishda mamlakatimizning elektron ommaviy axborot vositalari rolini oshirish maqsadida hukumatimiz qarori asosida O‘zbekiston teleradiokompaniyasini O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi (O‘zbekiston MTRK) nomi bilan qayta tashkil qilindi.

Quyidagilar O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining tarkibiga kiritildi:

- "O‘zbekiston" telekanali va "O‘zbekiston" radiokanalni negizida tashkil qilinadigan "O‘zbekiston" teleradiokanalini davlat unitar korxonasi;

- "Sport" telekanali va "Mash'al" radiokanal negizida tashkil qilinadigan "Srort" teleradiokanal davlat unitar korxonasi;
- "Toshkent" telekanali va "Do'stlik" radiokanal negizida tashkil qilinadigan "Toshkent" teleradiokanal davlat unitar korxonasi;
- "Respublika telemarkazi", "Respublika radio va ovoz yozish uyi", "Nukus teleradiomarkazi" korxonalari negizida tashkil qilinadigan "Respublika teleradiomarkazi" davlat unitar korxonasi;
- "O'zbektelefilm" studiyasi negizida tashkil qilinadigan "O'zbektelefilm" davlat unitar korxonasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat teleradiokompaniyalari, shuningdek boshqa ijodiy, ishlab chiqarish-texnika bo'linmalari.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- aholini, shuningdek, chet el jamoatchilagini O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan, huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish, mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan demokratik o'zgarishlar to'g'risida keng xabardor qilish;
- aholining ta'lim va madaniy saviyasini oshirish, milliy an'analarni, tarixiy va ma'naviy merosni saqlab qolish, fuqarolarning ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirish, yoshlar va o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, Vatanga muhabbat va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan tele- va radiodasturlar sifatini, professional va badiiy darajasini ta'minlash;
- O'zbekiston MTRK teleradiokanallari, tarkibiy bo'linmalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularning iqtisodiy mustaqilligini, axborot xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash, tele-radio ko'rsatuv va eshittirishlarini tashkil qilish jarayoniga bozor mexanizmlarini tadbiq

etish, ushbu sohaga mamlakatimiz hamda chet el korxonalarini, tashkilotlari va moliya institutlarining sarmoyalarini jalb qilish;

- zamonaviy talablar hamda standartlarga muvofiq texnika bazasini yanada rivojlantirish, teleradiodasturlar tayyorlashga axborot, kompyuter va mediatexnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- O‘zbekiston MTRK bo‘linmalari ijodiy va texnik xodimlarining kasb mahoratini takomillashtirish, ijodiy faolligini oshirish maqsadida ularni samarali qayta tayyorlash, malakasini oshirish uchun zarur tashkiliy shart-sharoitlar yaratish;
- davlat va nodavlat xorijiy teleradiokompaniyalar, axborot agentliklari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan teleradioeshittirish sohasida axborot almashish bo‘yicha samarali xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Xulosa qilinadigan bo`lsa, O‘zbekiston MTRKning asosiy vazifalarini, shuningdek teleradiokanallar o‘rtasida teleradio mahsulot sifatini, badiiy va professional saviyasini oshirishga, aholining xilma-xil va ishonchli axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan dasturlar va ijodiy g‘oyalarning sog‘lom raqobatini rivojlantirish zaruratini hisobga olgan holda, ushbu bandda ko‘rsatilgan ustuvor yo‘nalishlarini muttasil chuqurlashtirib, kengaytirib va yangilab borishni belgilab beradi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasida radio, televide niye sohasining rivojlanishida jurnalistlarning o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotida ommaviy axborot vositasi sifatida radio va televide niyening ijtimoiy vazifasini bilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa jurnalist uchun radio va televide niyening ijtimoiy vazifasini bilish o‘zining ma'lum o‘rnini egallashi, o‘z kasbiy masalalarini, o‘z rolini belgilashi uchun imkon beradi. Jurnalist bir tomondan doim auditoriyaning talabini hisobga olish lozim bo‘lsa, ikkinchi tomonda teleko‘rsatuv tayyorlovchi tashkilot tomonidan belgilangan maqsadlarga xizmat qilish zarur. Vatanimiz jurnalistikasida an'anaviy tarzda davom etgani kabi, unisi ham bunisi ham qo‘llanib kelingan. Ilgari «bir yoqlama» jamiyatda nima narsa talab qilinsa, bu talab bugungi kunda ham o‘zgargani yo‘q.

Ba'zi mamlakatlarda davlat organlarining tijorat telekanallari avvalgi an'analarga muvofiq ko‘rsatuv uchun beriladigan litsenziyalar telestansiya egalari oldiga qattiq talablarni ko‘yadi, shu jumladan ko‘rsatuv tarkibiga oid talablarni, ko‘rsatuv beruvchi auditoriyaning faqatgina ko‘ngil ochishini emas, balki unga axborot yetkazish va ma'naviy yuksaltirish majburiyatini ham oladi.

Yevropa ommaviy axborot vositalari instituti olimlari 1990 yili shu qarorga keldilarki, ko‘rsatuv bu – milliy boylik, butun aholi uchun yagona tarbiya va muloqat vositasi bo‘lib ba'zi bir guruhlar qo‘lida bo‘lmasdan jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi kishilar nazorati ostidagi muassasa bo‘lishi kerak. Faqat erkinlik va nazorat oralig‘idagi mutanosiblik shundaki, ko‘rsatuvlarning maqsadga yo‘naltirishdan kelib chiqqan holda, hukumat va parlament televide niyening kundalik ichki ishlariga aralashmaydi.

Barcha ommaviy axborot vositalari maqsadidan kelib chiqqan holda jurnalist eng avvalo, yakka shaxsning, jamiyatning va davlatning axborot olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga asosiy e‘tiborini qaratadi. Televide niye va radio o‘zidan ilgari vujudga kelgan ommaviy axborot vositalaridan farqli o‘laroq axborotni tezroq, ishonchliroq va hissiyotga boyroq tarzda tarqatadi.

Muntazam ijtimoiy axborotga ega bo‘lish zamonaviy hayotda to‘laqonli ishtirok etishning asosiy shartiga aylanib qoldi. Butun dunyoda, yohud muayyan hududda ro‘y berayotgan voqealar haqidagi og‘zaki xabarlar, reportajlardan iborat axborot dasturi xabarlar oqiminiig yaxlit majmuasi sifatida shakllanadi. Axborot dasturi ko‘rsatuvlarning dolzarbligi va muhimligini taqozo etadi. Qolgan ko‘rsatuvlar esa yangilik va axborot eshittirishlar orasida foydalanilishi mumkin. Axborot ko‘rsatuvlarining dasturdagi o‘rni va vaqtin o‘zgarmas tamoyil hisoblanadi.

Ba’zan, yangiliklarda voqeа joyidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib borilayotgan reportajlar beriladi, to‘g‘rirog‘i, o‘sha voqeа-hodisa (albatta, sodir bo‘lishi avvaldanoq ma'lum bo‘lgan) aynan yangilikning shu soni efirga ketayotgan payti sodir bo‘layotgan bo‘ladi. Biroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya’ni bo‘lib o‘tgan emas, balki bo‘lib o‘tayotgan voqeа hodisalarni yoritish bilan shug‘ullanish maxsus axborot kanallarining vakolatiga kiradi. Ushbu kanallar tufayli ang tezkor yangiliklar oqib tushayotgan vodoprovod suvi, tarmoqdagi elektr quvvati kabi ko‘plab kishilar uchun zaruriy omilga aylanadi. Ma'lumki, dunyodagi yetakchi siyosatdonlar xonasi va qabulxonasidagi televisorlar kanali Si-En-Enga ulangan bo‘ladi. Bu esa, dunyodagi siyosiy va boshqa sohalardagi eng tezkor yangiliklardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Kishilarning ehtiyojini qondirish maqsadida, tezkor xabarlarini vaqtida qidirish, topish va auditoriyaga uni ta’sirchan tarzda va yangi-yangi usullarda berish axborotning samaradorligi va ta’sirchanligini yana bir karra oshiradi. Biroq televidenyeda shunday dasturlar va muhim kanal borki, aynan ular teleauditoriyani fan va madaniyat yutuqlari bilan tanishtirib boradi. Bu kanalda oxirgi yillarda maorif tizimini targ‘ib qilish maqsadida didaktik ruhdagi mavzular yuzaga kela boshladi. Faqat madaniy-ma'rifiy vazifasi va ma'naviy vazifalar o‘rtasida xuddi maktab va klubning o‘zaro farqi singari tafovutlar mavjud. Televideniye tomoshabinlarga teatr spektakllari yoki o‘yin telefilmlarini to‘liq oynai jahonda olib ko‘rsatish orqali madaniyat boyliklarini targ‘ib etadi. San'atga oid bu formalar aynan jurnalistlar va muhokamalar doirasida vujudga keldi. Telejurnalistika maqsadlariga muvofiq ekranda ayniqsa, madaniy-ma'rifiy

yo‘nalishdagi ko‘rsatuvlarda barcha tasvir imkoniyatlarini ishga solish bilan birga asosiy professionallik belgilari yuzaga keladi.

Barcha ommaviy aloqa vositalari, avvalo, televide niye o‘z tabiatiga yarasha jamiyatdagi me‘yoriy holatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intildi. Kishilarning turli programmalar ni muntazam ko‘rib borish fakti ularning muayyan birliklari haqida guvohlik beradi, lekin, efirga olib chiquvchi ish jarayonida barchaga alohida e’tiborni his qilgan holda ishlamoq shart. Ko‘rsatuvning vazifasi auditoriyaga barcha qimmatli (umuminsoniy, umumxalq va hokazo) qimmatli ma'lumotlarni ochiq ko‘rsatish, jamiyatga xavf tug‘diruvchi qarama-qarshiliklarni, barcha muammolarni hal qilish yo‘llarini muhokama qilishidadir.

Ko‘rsatuvning efirga uzatilishida qancha keng ko‘lamda va rang-barang ma'lumot berilsa, shuncha programmalar ga bo‘lgan e’tibor kuchayadi, ya’ni auditoriyaning hech biri chetda qolmasligi uchun ahamiyat beriladi. Milliy va diniy xususiyatlardan tashqari odamlarning ijtimoiy-psixologik, yoshidagi tafovutlarga qarab ijtimoiylikka e’tibor beradilar. Bundan tashqari televizion kanallar har bir tomoshabinning dunyodagi barcha yangiliklardan xabardor bo‘lishdek ehtiyojlarni, ularning muayyan guruhini, aniq qiziqishlarini hisobga olgan holda qondirishadi. Integrativ vazifa efirga uzatiladigan televizion publisistik, sport, san'at, ko‘ngil ochar ko‘rsatuvlarda o‘z ifodasini topmoqda. U go‘yo televide niyening boshqa (axborot, madaniy-ma'rifiy, tashkilotchilik, ma'naviy va hokazolar) vazifalarini o‘ziga umumlashtirib, qamrab oladi. Jurnalist uchun televide niyening integrativ vazifasini ta’min etishda, avvalo lozim belgi sifatida mavzuga, televizor oldidagi har bir insonga g‘amxo‘rlik tariqasida jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda yondashish talab qilinadi.

Radio va televide niyening aholiga ta’siri siyosiy va ma'naviy qadriyatlarning targ‘ibi bilan birgalikda amalga oshadi. Uning darjasida esa har bir davlatning xarakteri, targ‘ibot va ta’sir ko‘rsatish uslubiga bog‘liq. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning ma'lum sohadagi siyosatining televide niye targ‘ibotchisi hisoblanadi.

Aholining o‘zgarib borayotgan hayotga va olamga moslashtirib borish bu asosiy ijtimoiy-pedagogik vazifadir. Bu sohada ish olib boruvchi jurnalist birinchidan ishontirmoqchi bo‘lgan aholining real psixologiyasini, ularning qadriyatlari haqidagi tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga qaratilgan yo‘nalishni aniq anglab yetishi lozim. Muhimi shuki, jurnalist targ‘ibot chog‘ida g‘oyalarni hech qachon «bizniki» va «begona» larga bo‘lishi mumkin emas. Chunki bu yerda uning ijtimoiy-pedagogik va birlashtiruvchi vazifalari talabi darajasida yondashish zarur. Ma'lumki, hududiy televideniye umumdavlat televideniyesidan ko‘ra o‘z auditoriyasiga ta’sir qilishi kuchliroqdir. Bu yerda mahalliy masalalar o‘z yechimini aniq topadi. Jurnalist bunday ko‘rsatuvlarda hukumat va xalq orasidagi eng muhim va ko‘zga ko‘ringan vositachidir.

1960 yillarda kadrda ishlaydigan har bir jurnalistni «sharhlovchi» deb atashardi. O‘tgan yillar mobaynida har bir tur ko‘rsatuvning uslubi, qonun-qoidasi shakllandi va teletomoshabinlar oldida jurnalistning qiyofasi shakllanib bordi.

Ular quyidagilar:

1. Telemuxbir;
2. Sharhlovchi;
3. Intervyu oluvchi (yirik intervylar ustasi analistik);
4. Olib boruvchi (munozara yoki boshqa ko‘rsatuvarlar, chet elda ularni moderator deb atashadi);
5. Tok-shoular olib boruvchisi;
6. Informatsion ko‘rsatuvarlar olib boruvchisi.

Bugun bizning teleekran amaliyoti ham telejurnalist qiyofasini aniq, sof holda belgilab bermoqda. Ayrim hollarda bir ko‘rsatuvda jurnalist barcha rollarni o‘zi bajarishiga to‘g‘ri keladi, masalan viloyatlar telekanallarida jurnalist ham intervyu oladi, ham sharhlovchi, ham redaktorlik vazifasini bajaradi. Lekin asosiysi bu hollarda janrlar bir-biri bilan aralashib ketmasligi lozim

Bulardan tashqari jurnalist yoqimli ko‘rinishga, shirin ovozga va to‘g‘ri talaffuzga ega bo‘lishi lozim, bulardan tashqari keng dunyoqarashga ega bo‘lishi,

inson va hayot sirlarini bilishi, aql va topqirlikka ega bo‘lishi, sabrli, kamtarin va o‘ziga ishonishi kerak va asosiysi kollektivda ishlay olishi lozim. Bu sifatlar barchada bo‘lishi qiyin, lekin jurnalistik hayotda ishtirok etuvchilar o‘zlarida bu sifatlarni rivojlantirishi kerak. Har bir jurnalist intervyu oladigan kishisiga o‘zini hamma narsada tayyor emasdek ko‘rsatmoqchi bo‘lsada, savollarni oldindan tayyorlab qo‘yishi zarur.

Bugun shou ko‘rsatuvlarni ko‘plab telejurnalistlar olib borishayapti. Ular ichida turli fikrdagi qatnashchilarni auditoriyaning ikki tomonga o‘tkazib ko‘rsatuv olib borish keng tarqaldi. Bu ko‘rsatuvlar ancha jiddiy tortishuvlarga boy bo‘lishi mumkin. Shuning uchun olib boruvchi unga puxta tayyorlanishi, o‘zini tutish, savol berish, muomala, ko‘pincha qatnashchilarni aniq maqsad atrofida birlashtirib tura olishi lozim. U suhbatdoshini yaxshi o‘rganishi, voqeanning har qanday rivojiga tayyor turishi lozim. Buning uchun esa u qo‘yilayotgan muammoni chuqur bilishi kerak. Suhbatdoshiga o‘z fikrini izxor etishi uchun teng vaqt berishi, ularni (fikri garchi unga yoqmasa ham) e’tibor bilan tinglashi, hurmat bilan munosabatda bo‘lishi zarur. U albatta voqeanning rivojini chuqur his etishi lozim. Uning vazifasi suhbatdoshlarni mavzudan chiqmasligiga, emotsiyal rujni yo‘qotmaslikka erishishdir. Eng muhimi olib boruvchi suhbat ishtirokchisiga aylanmasligi, u yoki bu tomonga o‘tib olmasligi lozim. To‘g‘ri, u suhbatdoshi bilan bahslashishi, uning fikriga gumon bilan qarashi mumkin. Ko‘pincha telejurnalistga yuqori martabali suhbatdoshlar bilan muloqotda o‘zini tutishiga qarab ham baho berishadi. Jurnalist yuqori lavozimli kishi oldida ham o‘zini yo‘qotmasligi, ular bilan ham yuksak mahorat va muloqot olib borishi lozim. Intervyu va tok-shou (ommaviy ko‘rsatuvlar) ham olib boruvchidan tezkor munosabat, zukkolik va sezgirlik, topqirlik va mahorat, eng muhimi suhbatdoshi bilan samimiy madaniyat ila muloqot qilishini talab etadi. Uning qo‘pollikka yo‘l qo‘yishga haqqi yo‘q.

O‘zbekiston televideniyasi suhandonlari tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ilk suhandonlar 1924-yili tashkil etilgan radioda faoliyat ko‘rsatgan edilar. Birinchi radio suhandoni Nazirxon Kamolov bo‘lgan. Ikkinci suhandon

esa Hojimurod Avazxo'jaev bo'lgan. Birinchi o'zbek ayol suhandoni Fotima Yunusova bo'lgan. 1956-yili Toshkent telestudiysi tashkil etilganidan boshlab, zangori ekranda "suhandon" deb ataluvchi kasb egalari ommalasha boshladi. Endi esa, kundalik yangiliklardan teletomoshabinlarni xabardor qilib turadigan, televideniye orqali beriladigan konsertlar va turli mavzudagi ko'rsatuvlarni olib boradigan suhandonlarga talab yuzaga kelgan edi. Televideniyyedagi birinchi suhandonlar bo'lib, Iqbola Olimjonova va Yunona Stolyarovalar tarixga kirishgan. Ular bir muddat, toki suhandonlar guruhi shakllangungacha ishlaganlar. O'tgan yillar ichida 100 dan ortiq kishi televideniye suhandoni sifatida ishlagan. Ularning ba'zilari qisqa fursat, bir-ikki yil ishlab, keyin sohalarini o'zgartirib, boshqa kasblarni tanlab ketgan bo'lsa, aksariyat qismining umri televideniyada "Zangori ekran" deb ataluvchi sirli quticha ichida o'tdi.

O'zbekistonda Q.Mahsumov, T.Yunusxo'jaeva, O'.Jobirov, N.Ibrohimova, G.Melnikova kabi o'nlab malakali suxandonlar suxandonlikni san`at darajasiga ko'tardilar. O'zbekistonda televideniye suxandonlari degan kasb egalariga ustoz bo'lgan, ularga yo'llanmalar bergen, telejurnalistikadagi turli janrlar ichida o'ziga mosini tanlash va shu jabbada o'zini namoyish qilishga yo`naltirgan ustoz Jobirov O'ktam Mamajonovichni alohida o'rni bor. Televideniyening turli kanallarida Jobirov O'ktam Mamajonovichning "muktab"ida pishgan yosh suxandonlar Surayyo Irmatova, Dilfuza Abduqodirova, Ra'no Umarova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shuhrat Qayumov, Shuhrat Rahmatjonovlar ham bugungi kunda faoliyat yuritmoqdalar. Shuningdek, televideniye suhandonlari orasidan yana Galina Melnikova, Nasiba Ibrohimova, Nasiba Qambarova va Farhod Bobojonov singari suhandonlar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'lishgan. Mirzohid Rahimovning mehnati esa O'zbekiston xalq artisti unvoniga loyiq topilgan. Davron Zunnunov, Rahmatilla Mirzaev, Ra'no Jo'raeva, Dilorom Umarova, Muslim Yo'ldoshev, Abdumo'min O'tbosarov, Dildora Rustamovalar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazovor bo'lganlar.

Axborotlarni tarqatish vositalaridan biri sifatida jahonning yirik telekompaniyalari va axborot agentliklari muhim ahamiyatga ega. Ulardan Rossiyada informatsion telegraf agentligi Itar-tass bo`lib unga 1992-yilda asos solingan va uning tarixi 1904-yilda tashkil topgan Petrograd telegraf agentligidan boshlanadi. AQShda asos solingan Assoshieyted press (1848) va Yunayted press interneshonal (YuPI, 1907), Germaniyada 1949-asos solingan Doyche presse agentur va Doyche velli axborot agentligi, Yaponiyada 1945-yilda asos solingan Kiodo susin agentligi, 1851-yilda Buyuk Britaniyada asos solingan Reyter agentligi, Xitoyda 1938-yilda asos solingan Sinxua agentligi, Fransiyada 1944-yilda asos solingan Frans press axborot agentliklari faoliyati jahonga axborot tarqatishda muhim ahamiyatga ega bo`lmoqda. O`zbekiston Respublikasida ham to`rtta informatsion agentlik ya`ni, O`zbekiston axborot agentligi (O`zA) Turkiston-press, “Jahon” va “O`zriport” agentliklari axborot tarqatishda keng faoliyat olib bormoqdalar.

Jahonning yirik telekompaniyalari orasida Mustaqil Davlatlar Hamdo`sligida “Ostankino” telekompaniyasi o`z o`rniga ega bo`lib hozirgi kunga kelib Rossiya davlat teleradio sektori 120 ga yaqin radio stansiyalardan iborat. Shuningdek, Rossiyada tijorat telekanallari va radiostansiyalari ham keng faoliyat olib bormoqda. Rossiyada RATA-TASS axborot agentligi, Rossiya “Novosti” axborot agentligi, “Interfaks” axborot agentligi, “24-kanal” axborot kanali faoliyat yuritadi.

Buyuk Britaniyada 1868-yilda Press Assoshieyshn – ichki axborot to`plashga va ommalashtirishga ixtisoslashgan yetakchi axborot agentligiga asos solingan. Reyter xalqaro axborot tarqatishga ixtisoslashgan dunyodagi eng yirik axborot agentligi 1851-yilda tashkil etilgan bo`lib asoschisi Paul Julius Reyter nomi bilan ataladi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada radioeshittirishlar 1922-yildan, teleko`rsatuvarlar esa 1936-yildan faoliyat olib boradi. Buyuk Britaniyada 400 ga yaqin radiostansiya, 180 ga yaqin asosiy va 400 dan ortiq yordamchi telestudiyalar mavjud. Buyuk Britaniyaning yetakchi radioeshittirish va teleko`rsatuv korporatsiyasi - «British Brodkasting Korporeyshn» - Bibisi 1922-yilda tashkil etilgan.

AQShda birinchi tijorat radiostansiyasi 1920-yilda tashkil etilgan. Tajriba teleko`rsatuvi 1928-yildan, muntazam teleko`rsatuvlari 1941-yildan ishlaydi. Bugungi kunda AQShda to`qqiz mingdan ko`proq radio va IZO telestudiyalari mavjud. Quyida jahonning yirik axborot agentliklari haqida to`xtalib o`tish maqsadga muvofiq keladi:

Assoshieyted press (Associated Press) — AQShning eng yirik axborot agentliklaridan biri. AQSh gazetalarini va 100 dan ziyod mamlakatlar nashrlarini axborotlar bilan ta`minlab turadi. 1848-yil Nyu-Yorkda tashkil etilgan. Chet ellarda 50 ga yaqin bo`limi va uch mingdan ortiq muxbirlari bor. Bir qancha xorijiy informatsiya agentliklari bilan shartnomalar asosida aloqa qiladi.

Reyter - Angliyaning eng yirik axborot agentligi. 1851-yil Londonda Reyter (P.J.Reuter) tomonidan tashkil etilgan. Xususiy sohibkorlar tresti. Chet el xabarlarini tarqatadi.

Frans press - Fransiya axborot agentligi. 1944-yil Parijda «Gavas» axborot agentligi (1835-1940) negizida tashkil etilgan. Ko`p mamlakatlarni xalqaro axborotlar bilan ta`minlovchi jahon axborot agentliklari qatoriga kiradi.

“Sin`xua” (Yangi Xitoy) Xitoy xalq respublikasining davlat axborot agentligi. 1938-yilda Yanan shahrida Xitoy KP axborot agentligi sifatida tashkil topgan. 1940-yildan Pekinda joylashgan. Mamlakat matbuoti, televideniye va radiosiga mamlakat va xorij hayotiga oid turli mazmundagi xabar va ma`lumotlar yetkazib beradi. Ayni paytda turli mazmundagi axborot, ma`lumotlarni xorijiga tarq`atadi.

Axborotlar televideniyadagi turkum ko`rsatuvlarda voqelik hech bir ortiqcha bo`yoqsiz, tomoshabinga asl holida yetkaziladi (jumladan, “Axborot”, “Davr”, “Yangiliklar” va boshqalar). Badiiy televidenyaning mahsulotlari esa badiiy san`at va yuksak estetik talablarga javob bera oladigan, voqelikni nafis san`at vositalari, obrazlar orqali ifoda etuvchi televizion drama va ko`rsatuvlarga asoslanadi.

Televideniya taraqqiyotida televizion eshittirishlarni tayyorlash, telemarkazlar faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bu o`rinda quyidagilarga alohida to`xtalib o`tish maqsadga muvofiq keladi.

Teleminoralar haqida fikr yuritilganda jahondagi yirik teleminoralarga alohida to`xtalib o`tish maqsadga muvofiq keladi.

Eyfel minorasi - Gustave Eyffel loyihasi bo`yicha Parijda qurilgan metal minora bo`lib Fransiya timsoli sifatida dunyoga tanilgan. XIX asr texnikasi yutug`i ramzi sifatida Minora 1889-yildagi Umumjahon ko`rgazmasi uchun qurilgan. 1931-yilgacha dunyoning eng baland va og`ir inshooti hisoblangan. Balandligi 324 metr, massasi 9 ming tonna, shundan 7,3 ming tonnasi metal konstruksiyalar. Minoraning quyi qismi kvadrat piramida shaklida, uchida pavilon va mayoq bor. Tepasida diametri 1,7 metrli maydoncha qurilgan. Radioeshittirish va teleko`rsatuvlarning muhim markazi hisoblanadi. Eyfel minorasini qurishda metal konstruksiyalarni montaj qilishning o`sha davr uchun eng ilg`or hisoblangan usullari qo`llangan. Eyfel minorasi Parij aholisi va sayyoohlar uchun eng qiziqarli ko`ngilochar maskan hisoblanadi. Parijning eng taniqli me`morchilik namunasi bo`lib, yiliga 5,5 million kishi tashrif buyuruvchi turizmning mashxur ob`yektiidir.

Dunyodagi eng baland teleminoralardan biri – Moskvadagi Ostonkino teleminorasi bo`lib, u 1967-yilda qurilgan va balandligi 540 metrga teng. Ostankino teleminorasini qurilish loyihasiga 1957-yil konkurs e`lon qilindi, natijalar bir yildan so`ng o`tkazildi. Natjalarga ko`ra arxitektkorlar Leonid Batalov, Dmitriy Burdin va konstruktor Nikolay Nikitinlarning loyihalari g`olib deb e`lon qilindi. 1960-yilning yozidan minorani qurilishi boshlandi, lekin bir yildan so`ng poydevorni ishonzhli ekanligiga shubha tug`ildi. Aloqa vaziri minorani qurilish loyihasini tasdiqlashdan oldin ko`plab yirik tajribalar va tekshiruvlar o`tkazadi. 1967-yil 5-noyabr Davlat komissiyasi tomonidan ishga tushirishni boshlash haqidagi Aktga qo`l qo`yildi. Aktga qo`l qo`yilgan kun Ostankino teleminorasini tug`ilgan kuni hisoblanadi. Shu kuni 4 ta teleko`rsatuv va 3 ta radioeshittirish programmalari efirga uzatildi. Minoradagi qurilish 26-dekabr 1968-yilgacha davom etdi. Balandligi bo`yicha Torontodagi Si-En-Tauer teleminorasidan keyingi o`rinda turadi. Ostankino teleminorasini 45 qavatdan iborat bo`lib, o`nlab doirasimon maydonlar va balkonlarga ega. 328-334 metr balandlikda “Yettinchi osmon” nomli restoran bor va u 3 etajdan iborat. Restoranning aylana shaklidagi

imorati 40 minut davomida bir marta o`z o`qi atrofida aylanib chiqadi. 2000-yil 27-avgustda bo`lib o`tgan yong`indan so`ng katta yo`qotishlar bo`ldi. Yong`indan keyin minorani ichki tomondan qayta tiklash, modernizasiyalash va uskunalar bilan ta`minlash ishlari amalga oshirildi. Minoraga yangi mustahkam troslar o`rnatildi, yonmaydigan kabellarga almashtirildi, boshqa zamonaviy uskunalar joylashtirildi. Yuqori temperaturaga chidamli liftlar, zamonaviy xavfsizlik sistemasini yaratish ko`zda tutildi.

Kanadadagi Toronto telemisorasi baland telemisora hisoblanadi va u 1976-yilda barpo etilgan, balandligi 550 metga teng.

2005-2009-yillarda qurilgan Xitoydagি Guanchjou telemisorasi (Canton Tower) balandligi 600 metr bo`lib baland telemisoralardan biri hisoblanadi.

2004-2010-yillarda Dubayda qurilgan dunyodagi eng baland “Burj-Xalifa” telemisorasi balandligi 828 metr xisoblanadi.

2008-2012-yillarda Yaponianing Tokio shahrida qurib ishga tushirilgan telemisora balandligi 634 metr bo`lib u jahondagi baland telemisoralardan biri hisoblanadi.

Toshkentda ham ikkita telemisora bor bo`lib, biri – 180 metrli 1936-yilda qurilgan, ikkinchisi 1978-1985-yilda qurilgan 375 metr balandlikka ega Toshkent telemisorasi hisoblanadi. 1957-yilda O`zbekiston radioeshittirish va televideniya qo`mitasi tashkil etildi. Qo`mita 1992-yil 7-yanvarda O`zbekiston davlat teleradio eshittirish kompaniyasiga O`zbekiston Prezidentining 1996-yil 7-maydagi farmoni bilan esa “O`zbekiston teleradiokompaniyasi” (“O`zteleradio”)ga aylantirildi. “O`zteleradio” ommaviy axborot vositalarining muassasasi, tahririysi, tarqatuvchisi va noshiri huquqlariga ega bo`ladi. Uning Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlarida hududiy bo`limlari mavjud. “O`zbekteleradio” jahondagi ko`pgina yirik telekompaniyalar bilan jumladan Amerikaning CNN Germanianing DW, Yaponianing NXK, TBG FYJI Koreyaning KBS, Turkiyaning TRK Rossiyaning yetakchi telekompaniyalari bilan keng tarmoqli aloqalarga ega. O`zbekiston TVning qator dasturlari GCOGA AQSH kontsorptsumi hamkorligida internet orqali uzatilib boriladi.

Xulosa qilinadigan bo`linsa, radio va televide niye ommani axborot bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish bilan birga, ularga tezkor axborotlar yetkazishda jurnalistlar faoliyatini ijtimoiy va huquqiy kafolatlashmuhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz radio va televide niyesi uchun professional jurnalistlarni tayyorlash hamda tarbiyalash muhim o`rinda turadi.

Xulosa

Bugungi globallashgan zamonda tomoshabin yoki tinglovchining tezkor va xolis axborotlarga ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Chunki har bir inson - keksayu yoshning kundalik hayoti, turmushi shiddat bilan rivojlanib, taraqqiy etib borayotgan axborot-kommunikatsiya sohalari, xususan matbuot, ommaviy axborot vositalari bilan uzviy bog‘liq. Zero, mustaqillik yillarda sohada tub islohotlar, ulkan o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlandi. Boshqacha qilib aytganda o‘tgan yillar mobaynida milliy teleradio son va sifat jihatidan tobora takomillashib rivojlandi.

Taraqqiyot bir joyda to`xtab turmaydi. Turli OAV (televideniye, radio, davriy matbuot)ning o‘ziga xos psixologik ta`siri mavjud. Har bir OAVlari auditoriyaga o‘ziga xos ta`sir etish kuchiga ega. Ularning ichida eng samaralisi televideniye bo`lib u tomoshabinga uch yo`l bilan axborot etkazadi: tasvir, ovoz va mantiq. Shuning uchun televideniye ommaviy ravishda tarqalganidan keyin besh-o`n yil ichida besh yuz yillik tarixga ega bo`lgan matbuotdan uzib ketdi.

Radio ham katta kuchga ega, chunki u ikki kanal orqali ta`sir ko`rsatadi, ovoz va mantiq. Uning afzalligi – jonli ovoz yordamida auditoriya bilan muloqot qilish, bunday usul axborot manbai bilan tinglovchi o`rtasidagi masofani yo`qotadi. Inson ovozi, uni yurakdan chiqishi, undagi hayajon va samimiylilik radioning imkoniyatini keskin oshiradi.

Mamlakatimiz mustaqilligi e`lon qilinishi bilan hayotimiz mazmuniga davlat radiostansiyalaridan tashqari FM radiostansiyalaridan eshittirishlar ham kirib keldi. Kun sayin ularning soni ortib, sifati bo`yicha o`zaro raqobat muhitida ishlay boshladi. Odatda, har tong kunimizni radio sadolari bilan boshlaymiz. Qandaydir yoqimli yangilik yoki kuy-qo`shiq ohanglarini tinglab, o`qish va ishga otlanamiz. Bu ohanglar kun davomida qalbimizni ruhlantirib, ilhom baxsh etadi. Qayda bo`lmaylik, uyda, transportda, ish joylarida hatto mobil telefonimiz vositasida bo`lsa ham radioeshittirishlari doimo bizga hamroh bo`ladi.

Mamlakatimizda radio aloqa xizmati yuz yillik tajribaga ega. Bir asrdan ortiq vaqt mobaynida radio xalqimizga jamiyat hayotining turli sohalarida muhim ahamiyatga molik xizmatlarini taqdim etib kelmoqda. Hozirgi kunda

O'zbekistonda 14 ta radiostudiya mavjud. Radioning o'ziga xos xususiyatlaridan biri undagi jonli so'z-asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Radio-axborot tarqatishning tezkor uslubi. Radio-axborotning asosiy xususiyati ma'lumotlarning hujjatlarga asoslanganligidir.

O'z navbatida elektron texnologiya yangi-yangi qirralarni namoyish qilmoqda. Televideniye va radio o'zining reproduktiv funksiyalarini ochmoqda. Biz uni ilg'ashimiz, o'rghanishimiz, faoliyatimizda dastur qilishimiz zarur. Bu sohani o'rghanishda qator mavzular, elektron inqilobning o'ziga xos tarixi, reproduktiv funksiyalarning boshqa san'at turlariga nisbatan tafovuti mavjud. Bu soha ham o'z navbatida rejissuraga bo'lgan talabni yanada kuchaytirdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq keladi:

- Tarixiy taraqqiyot jarayonida radio va televideniyenin rivojlanishi hamda yaratilishi tarixiga oid tadqiqotlarni keng ommalashtirish;
- Radio va televideniying jahon axborot makonida o'z o'rniga ega bo'lishida soha xodimlarini malakasini tinimsiz ravishda oshirib borish;
- O'zbekiston Respublikasida radio, televideniye sohasining rivojlanishida jurnalistlarning dunyoning rivojlangan mamlakatlari OAV darajasida faoliyat olib borishlarini ta'minlash uchun yanada keng sharoitlar yaratish;
- Radio va televideniying jamiyatdagi estetik funksiyalarini axborot texnologiyalarini qo'llagan holda taraqqiy toptirish;
- O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy televideniya va radio sohasida amalga oshirilgan islohotlar samarasini targ'ibotini yanada kengaytirish;

O'zbekiston Respublikasida radio, televideniye sohasining rivojlanishiga oid olib tadqiqotchilar tomonidan borilayotgan ilmiy ishlarini yanada kengaytirish va imkoniyatlar yaratish.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

I. Rahbariy adabiyotlar :

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: O`zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiysi. – Toshkent: O`zbekiston, 2010.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish eng oliv saodatdir. – Toshkent: O`zbekiston, 2015.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. O`zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagি nutqi // Xalq so`zi, 2016 yil 7 dekabr
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: O`zbekiston, 2017.
7. Miziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. – Toshkent: O`zbekiston, 2017.

II. Me`yoriy-huquqiy manbalar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O`zbekiston, 2016.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mustaqil teleradio uzatuv kanallarini isloh qilish va rivojlantirish chora- tadbirlari haqida”gi 2005 yil 8 noyabrdagi farmoni
3. “O`zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlar haqida”gi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2005 yil, 27 dekabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli televideniyega texnik va texnologik o‘tishga doir Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarori, 2012-yil 17-aprel.

III. Ilmiy, o`quv adabiyotlar:

1. Akbarov X. Kino va televide niye olamida. – Toshkent, 2009.
2. Muhamedov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televideniye asoslari. – Toshkent, 2008.
3. Ubaydullayev M. Oyinai jahon istiqbollari. – Toshkent, 1993.
4. Muminov F. Telejurnalistika asoslari – Toshkent: Fan, 2006.
5. Bakulev G.P. Televideniye bez granits – M., 1994.
6. Boretskiy R., Kuznetsov G. Jurnalist TV: za kadrom i v cadre. – M., 1990.
7. Vachnadze G. Vsemirnoe televide niye – Tbilisi, 1989.
8. Golyadkin N.A. TV informatsiya v Ssha – M., 1996.
9. Cardwell Sarah. Adaptation Revisited: Television and the Classic Novel. – London: Manchester University Press, 2002.
10. Djakoniya V. Televide niye. – Moskva: Goryachaya liniya – Telekom, 2002.
11. Marc, David, and Robert Thompson. Television in the Antenna Age: A Concise History. Malden, MA: Wiley, 2005.
12. Castleman, Harry, and Walter Podrazik. Watching TV: Six Decades of American Television. 2d ed. Syracuse, NY: Syracuse University Press, 2010.

IV. Internet materiallari:

1. www.wikipedia.ru
2. http://www.peterburgremont.ru/s_televizor.html
3. <http://50hz.biz.ua/ru/produkciya/televizory/televizory-led/>